

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA ORTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Filologiya va tillani o'qitish (o'zbek tili) ta'lif y o'nalishi**

**"Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrasи**

**RAZZAQOVA UMIDA DAVRONBEK QIZI**

**G'AFUR G'ULOM QISSALARIDA  
DAVR VA SHAXS TALQINI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Fakultet dekani:**

**f.f.n , dots. \_\_\_\_\_ S.Abdullaev  
" \_\_\_\_\_ " iyun**

**Kafedra mudiri: f.f.d.prof  
\_\_\_\_\_ B.Karimov**

**Ilmiy rahbar: f.f.n.dots.  
\_\_\_\_\_ I. Yoqubov**

**Toshkent – 2018**

Bitiruv malakaviy ishi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon” kafedrasida bajarildi.

**Ilmiy rahbar:** f.f.n.dots. Yakubov. I.

**Taqrizchi:** Nurillo Chori, “Yoshlik” jurnali bosh muharriri o‘rnbosari

Himoya 2018 yil iyun oyining kuni soat da Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti qoshida tuzilgan Davlat attestatsiya komissiyasi yig’ilishida o‘tkaziladi.

BMI bilan Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU kutubxonasida tanishish mumkin. (100123 Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, O‘qituvchi ko‘chasi, 103 uy)

**BMI ni tugallangan tadqiqot sifatida rasmiy himoyaga tavsiya etaman.**

## **MUNDARIJA:**

<b>Kirish .....</b>	4
---------------------	---

### **Birinchi bob: ADABIY TA'SIR VA BADIY MAHORAT**

1.1.G'afur G'ulom nasri takomilida Abdulla Qodiriy romanlarining ta'siri..	13
1.2.Yozuvchi nasriy merosining janriy rang-barangligi va ichki rivoji.....	20

### **Ikkinci bob:**

#### **ADIB IJODIY QARASHLARI VA BADIY TASVIR MUTANOSIBLIGI**

2.1. Adib qissalarida folklor va mumtoz adabiyot an'analari.....	35
2.2. Bosh qahramon qismatining ijtimoiy davr bilan bog'liqlikda badiiy tahlil qilinishi .....	39

### **Uchinchi bob:**

#### **ADIB QISSALARIDA YUMORNING KO'LAMI**

3.1. O'spirin obrazining shafqat va hamdardlik negizida tasvirlanishi.....	42
3.2. Xarakterlar qismatining o'zaro tutashligi.....	47

<b>Xulosa.....</b>	52
--------------------	----

<b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	54
---	----

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida xalqning aniq maqsad yo‘lida harakat qilishida ta’lim-tarbiyaning roli naqadar muhim ekanini uqtirarkan: “*Hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbliji va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda... Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’alarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz*”<sup>1</sup>, - deb ta’kidladilar. Darhaqiqat, mustaqillik biz yoshlar uchun yangi-yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq, yosh avlod shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoga hamqadam bo‘lishi, olis va yaqin o‘tmish merosimizni qaydarajada o‘zlashtirishi, ularning o‘zligini anglashiga ham bog’liqdir.

Nodir iste’dod sohibi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, faylasuf shoир, nosir G’afur G’ulom xalqimiz va butun ezgu niyatli bashariyatning qalbiga qulqoq tuta olgan, ularning dardini dildan his eta bilgan olim, shoир va yozuvchi edi. G’afur G’ulom ijodiy merosining salmoqli qismini nasriy asarlari, xusuan qissalari tashkil etadi. Mazkur qissalarni davr va shaxs talqini nuqtai nazaridan o‘rganish yoshlar tarbiyasi, madaniy merosga munosabatini shakllantirish, XX asr vaqeligining badiiy talqinlarini yangicha qarashlar asosida o‘rganish negizida estetik didini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, “... *biz hali yurtimizni, uning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, ulug’ olimu ulamolarini, bebahom a’naviy merosimizni to’liq o‘rganganimiz yo‘q.*”<sup>2</sup>

### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

G’afur G’ulom hayoti, ijodiy merosining qimmati, qadri doimo adabiyotshunoslik va tanqidchilikning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ijod

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва фарновлигининг гарови // Халқ сўзи, – 2016 йил 8 декабр

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. 2017 йилнинг 15 июнь куни Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган: “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асрар – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзланган нутқ. // Халқ сўзи, – 2017 йил 16 июн, № 119 (6813).

namunalari 30-yillardayoq maktab va Oliy o‘quv yurtlari dasturlaridan o‘rin olgan. Hozirgacha mustaqilligimizni mustahkamlash, zamondoshimiz badiiy-estetik didini o‘stirishga xizmat qilib kelmoqda. G’.G’ulom hayoti va ijodiy merosining o‘rganilishini shartliravishda ikki davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. 1.Yakkahokim mafkuraviy-dabiy siyosat hukmron bo‘lgan davr. 2. Mustaqillik davri.

*Yakkahokim mafkuraviy-dabiy siyosat hukmron bo‘lgan davrda G’afur G’ulom hayoti va ijodi* Olim Sharafiddinov (Ayn), Oybek, Hamid Olimjon, Homil Yoqubov, Salohiddin Mamajonov, Matyoqub Qo‘shtonov, Naim Karimov, Ozod Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Niniel Vladimirova, Sobir Mirvaliev, Solih Qosimov, Berdiali Imomov, Marhamat Amilova, Sharif Yusupov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Abdug’afur Rasulov, Hamidulla Boltaboev, Tozagul Matyoqubova va boshqa o‘nlab olimlarning diqqatini jalgan qilgan.

Bular orasida professor Homil Yoqubovning G’afur G’ulom hayoti va ijodini tadqiq etuvchi adabiy-tanqidiy ocherki<sup>3</sup> ayniqsa, diqqatga sazovordir. Kitobda atoqli o‘zbek shoiri o‘zi yashagan davr voqeligidan hayotiga mazmun olib, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirgan qalamkash sifatida o‘rganiladi. Garchi olim G’afur G’ulomning o‘ttiz besh yillik ijodiy yo‘lini siyosiy-mafkuraviy nuqtai nazardan tahlil etsa ham, uning ichki takomilini kuzatish, asarlari poetik tili va xalqchillagini aniqlash, istiqbol rejalarini pragnoz qilishga ham harakat qilgan edi.

Akademik Salohiddin Mamajonov ham G’afur G’ulom ijodini o‘rganishga barakali hissa qo‘shti. Uning “Shoir va zamonaviylik”<sup>4</sup>, “G’afur G’ulom prozasi”<sup>5</sup>, “Uslub jilolari”<sup>6</sup> kabi yirik monografik tadqiqotlarida shoир ijodi g’oyaviylik bilan bir qatorda, badiiy barkamollik talablaridan ham tadqiq etildi. G’afur G’ulom she’riyati siyosiy-falsafiy ruhi, ko‘tarinki pafosi, hozirjavob va dolzarbliji, xalqchilligi va gumanizmi jihatidan qadrlandi. G’.G’ulom ijodi:

<sup>3</sup> Ёкубов X. Fafur Fулом (ҳаёти ва ижоди). – Т: Бадиий адабиёт, 1959

<sup>4</sup> Мамажонов С. Шоир ва замонавийлик. – Т: Фан, 1963

<sup>5</sup> Мамажонов С. Fafur Fулом прозаси. – Т: Фан, 1966

<sup>6</sup> Мамажонов С. Услуб жилолари. – Т: Адабиёт ва санъат, 1972

- a) mumtoz folklor;
- b) Sharq she'riyati;
- v) rus adabiyoti.

kabi uch ildizdan oziqlanishi aniqlanib, shu asosda tahlil qilindi. Uning qirq yillik ijodiy yo‘lini kuzatgan adabiyotshunos G’.G’ulomni “o‘zbek poeziyasining oqsoqoli,” - deb ta’rifladi. Munaqqid “Shoir va zamonaviylik” nomli kitobida G’.G’ulomning mavzu tanlashi, obraz yaratishdagi individualligi, hayot materialiga yondashuvi, estetik qarashlari va badiiy ijodi o‘rtasidagi birlik kabi jihatlarni haqqoniy ko‘rsatishga harakat qilgan. “Uslub jilolari” monografiyasida esa, G’afur G’ulom she’riyatining lirik qahramoni, shoir ijodida an’ana va novatorlik, uslub masalalari, shuningdek, rus adabiyoti bilan aloqalari, yosh qalamkashlarga ta’siri tekshirildi. G’afur G’ulomning ustozlari, individual uslubi, boshqa qalam sohiblariga ta’siri bir butunlikda olib qaraldi. Boshqacharoq qilib aytganda, shoiring poetik ijodi yaxlit tarzda o‘rganildi. Adabiyotshunos “G’afur G’ulom prozasi” kitobida yozuvchining nasr sohasidagi mahoratini ochishga, asarlarining janr xususiyatlarini belgilashga, individual uslubi, bayon tamoyillarini ko‘rsatishga, ijodiy metodini xarakterlashga asosiy e’tibor qaratdi. S.Mamajonov tadqiqotlari G’afur G’ulomning voqelikka yondashuvi va uni idrok etish usuli, ijodiy metodini tayin etishi kabi jihatlari bilan bugungi adabiyotshunoslik talablariga to‘la javob bera olmasa-da, o‘z davrida katta ahamiyat kasb etdi. Ularda istifoda etilgan boy faktik materiallar keyingi tadqiqotlar uchun tayanch vazifasini o‘tadi.

Marhamat Amilova “O‘zbek sovet adabiyotida folklor an’analari”<sup>7</sup> kitobida G’afur G’ulomning xalq og’zaki ijodidan foydalanish tamoyillari, poetik asarlarida folklor an’analaridan foydalanishdagi ijodiy individualligi kabi masalalar o‘rganildi. Tadqiqotchi ijodkorning folklor materialiga murojaat qilishi adabiyotni rivojlantiruvchi muhim tendentsiyalardan biri ekanligini to‘g’ri ta’kidlaydi. U G’afur G’ulom ijodida xalq og’zaki ijodiga xos shakliy-uslubiy jihat, obraz va motivlar, mubolog’a va komizmdan foydalanish nisbatan ochiqroq

---

<sup>7</sup> Амилова М. Ўзбек совет адабиётидаги фольклор анъаналари. – Т: Фан, 1990

namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Biroq, ijtimoiy ideali xarakteridagi “sifatiy siljish”larni sho‘ro mafkurasi, estetikasi doirasidagina ko‘rsatishga majbur bo‘ldi.

Umuman, yuqorida ko‘rsatilgan tadqiqotlarda yaqin o‘tmish davri mafkurasining izlari aniq ko‘rinadi. Bu hol tadqiqotchilarning adabiy tahlillari qimmatini, davr imkon bergani qadar G’afur G’ulom ijodi mohiyatini anglab, u yoki bu asarining biografik-genetik ildizlarini ochishga bo‘lgan intilishlarini butkul inkor qilishga asos bo‘la olmaydi.

Istiqlol yillarda erkin fikr taraqqiyoti, adabiyotshunoslik va tanqidchilik rivoji uchun keng keng imkoniyatlar yaratildi. Bu hol G’afur G’ulom shaxsi va ijodiga bo‘lgan munosabatni ham keskin o‘zgardi. Uning ijodiy merosi ildizlari hamda mohiyatiga tobora chuqurroq kirib borildi. Tahlil va talqinlar ilgarigi tadqiqotlardan farqli tarzda G’afur G’ulom fenomenining tamomila yangi qirralarini kashf etishga yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan G’afur G’ulom tavalludining yuz yilligini munosib nishonlash to‘g’risida maxsus qaror qabul qilinishi va bu san’aning keng nishonlanishi, Respublika Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahrida shoir haykali ochilishiga bag’ishlangan marosimda aytgan quyidagi so‘zlari ijodkorga bo‘lgan cheksiz ehtirom nishonasi bo‘ldi: “...*G’afur G’ulom shaxsi, xotirasi va merosi haqida gapirganda , biz bu ulug’ insonni, avvalo, keng, tom ma’noda xalq shoiri, deb qiyos etamiz, uning o‘lmas nomi va so‘nmas ijodi oldida bosh egamiz*”<sup>8</sup>.

Yuqoridagi qarorga asosan 2003 yilda jumhuriyatimizning deyarli barcha hududlarida bu qutlug’ san’aga bag’ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlar bo‘lib o‘tdi. Ularda o‘qilgan ma’ruzalarning matnlari chop etilib, ilmiy-adabiy jamoatchilik va keng kitobxonlarga taqdim etildi. Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professor-o‘qituvchilari ma’ruzalaridan tarkib topgan “*G’afur G’ulom va davr*”<sup>9</sup> nomli to‘plamdan Umarali Normatov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Hamidulla Boltaboev, Abdug’afur Rasulov, Sanjar

<sup>8</sup> Халқ сўзи. // – 2003 йил, 13 май.

<sup>9</sup> Фафур Фулом ва давр. – Т: Университет, 2003

Sodiqov, Hamdam Abdullaev, Hamidulla Dadaboev, Umurzoq O‘ljaboev, Rahmatulla Inog’omov, Islomjon Yoqubov, Normurod Yo‘ldoshev, Ziyodulla Hamidov va boshqalarning ilmiy-nazariy maqolalari o‘rin oldi. Ularda G’afur G’ulom millat ruhining ifodachisi sifatida tahlil va tadqiq etildi.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universitetida bo‘lib o‘tgan ilmiy-nazariy konferentsiya natijalari sifatida chop etilgan “*G’afur G’ulom va Samarqand*”<sup>10</sup>, “*G’afur G’ulom o‘zbek adabiyotining bayroqdori*”<sup>11</sup> kabi to‘plamlarda birinchidan, shoir ijodining yuksalishida Samarqand adabiy muhitining o‘rni haqida so‘z yuritildi. Ikkinchidan, G’afur G’ulom ayrim asarlarining yaratilish tarixi, badiiy mahoratiga doir ma’lumotlar keltiriladi. Uchinchidan, adabiy-ilmiy muloqotlar, shuningdek, adabiyotning umrboqiyligini ta’minlovchi omillar tahlil etildi. Mazkur izlanishlarda shoir tagma’noli fikrlarini ilg’ashga, asarlari bag’ridagi yashirin qatlamlarni yuzaga chiqarishga harakat qilindi.

Professor Hamdam Abdullaevning “*G’afur G’ulom va Xorazm*”<sup>12</sup> risolasi adibning Xorazm mavzusidagi asarlarida keltirilgan e’tiroflar, uni ko‘rgan va muloqotda bo‘lgan kishilarining xotiralaridan tartib berilgan. Fikrimizcha, G’afur G’ulomning u yoki bu viloyat olimlari, ziyolilari bilan adabiy aloqalarini, she’riyat kechalaridagi insoniy xususiyatlarini ham yoritish kerak. Shubhasiz, muallif hayoti bilan chambarchas aloqador bo‘lgan hodisalar uning tabiatni, ayrim asarlari tarixi, atrofini qurshagan insonlar haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi. Ammo, xalqaro miqyoslarda tanilgan shoir, nosir va akademik G’afur G’ulomni jahon adabiyoti darajalarida o‘rganish, tafakkur qamrovini kosmogenik kengliklarda olib qarashgina uning o‘z davri adabiy hayotidagi o‘rnini, bugungi kunimiz uchun ahamiyatini teranroq anglash sari yetaklaydi.

Farg’ona Davlat universiteti ilmiy-nazariy anjuman materiallari “*G’afur G’ulom – shoir, yozuvchi va olim*”<sup>13</sup> deb nomlandi. Zahiriddin Muhammad Bobur

<sup>10</sup> Faafur Fулом ва Самарқанд. – Самарқанд, Университет, 2003

<sup>11</sup> Faafur Fулом - ўзбек адабиётининг байроқдори. – Самарқанд, Университет, 2003

<sup>12</sup> Абдуллаев Х. Faafur Fулом ва Хоразм. – Т: 2003

<sup>13</sup> Faafur Fулом – шоир, ёзувчи ва олим. – Фарғона, 2003

nomidagi Andijon Davlat universitetida o‘tkazilgan konferentsiya natijalari “O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari”<sup>14</sup> nomi bilan chop qilindi. Ularda G’afur G’ulomning adabiy-ilmiy merosi, ijtimoiy faoliyati, o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, asarlarining til xususiyatlaridan tortib, ijod mahsullarini ta’lim tizimida o‘rganish muammolari, shoir haqidagi ayrim xotiralargacha qamrab olishga harakat qilingan. Muhimi shundaki, mazkur anjumanlar viloyatlarda o‘tkazilishiga qaramasdan, akademiklar: Salohiddin Mamajonov, Botir Valixo‘jaev, professorlar: Bahodir Sarimsoqov, Umarali Normatov, Hamidulla Boltaboev, Abdug’afur Rasulov va boshqalar ham ularda o‘z ma’ruzalari bilan faol ishtirok etishdi.

“G’afur G’ulom zamondoshlari xotirasida”<sup>15</sup> kitobi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “Alvido ustoz” marsiyasi bilan ochiladi. To‘plamdan O‘zbekiston xalq shoirlari: Sobir Abdulla, Zulfiya, Mirtemir, Ramz Bobojon; O‘zbekiston qahramonlari: Said Ahmad, Erkin Vohidov, Ozod SHarafiddinov; O‘zbekiston xalq yozuvchilari: Hamid G’ulom, Mirmuhsin, Odil Yoqubov, O‘tkir Hoshimov; O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimlari: Vahob Ro‘zimatov, Maqsud Qoriev; O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Omon Muxtor, Qozog’iston xalq yozuvchisi Sobit Muqonov, tatar shoiri Samad SHokir, yozuvchi Jonrid Abdullaxonov hamda G’afur G’ulomning rafiqasi Muhamarram G’ulomovalarning samimiy xotiralari o‘rin olgan. Oybek, Abdulla Qahhor, Komil Yashin, Mirzo Tursunzoda, SHarof Rashidov, Asqad Muxtor, Nikolay Tixonov, Konstantin Simonov, Abdulqosim Lohutiy, CHingiz Aytmatov, Rasul Hamzatovlarning G’afur G’ulom shaxsi, iqtidori, salohiyati, badiiy mahorati haqidagi haqli e’tiroflari kitobni ziynatlab turibdi.

Adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimov “G’afur G’ulom”<sup>16</sup> nomli risolasida G’afur G’ulom ijodiga bugungi voqelik nuqtai nazaridan yondashadi. Badiiy jihatdan mukammal she’rlarining yaratilish tarixi, g’oyaviy-badiiy jozibasi

<sup>14</sup> Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2003

<sup>15</sup> Faafur Fулом замондошлари хотирасида. – Т: Faafur Fулом номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи, 2003

<sup>16</sup> Каримов Н. Faafur Fулом. – Т: Faafur Fулом номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи, 2003.

haqida fikr yurgizish asnosida, N.Karimov shoir hayotining hali ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan ayrim sahifalari haqida naql qilish yo‘lidan boradi. Shoir biografiyasiga oid ma’lumotlar vositasida ijodkor ruhiyatini va asarlarini tushunishga intiladi. Shubhasiz, akademik Baxtiyor Nazarovning “*G’afur G’ulom olami*”<sup>17</sup> risolasini keyingi yillardagi g’afurg’ulomshunoslikning jiddiy yutug’i sifatida ko‘rsatish lozim. Shuningdek, filologiya fanlari nomzodi Tozagul Matyoqubovaning “*G’afur G’ulom badiiyati*”<sup>18</sup> monografiyasining “G’afur G’ulom nasrining poetik jozibasi”, - deb nomlangan uchinchi bobida G’.G’ulom hikoyalarda peyzajning badiiy-estetik funktsiyasi kuzatilgan. Adib hikoyalardagi nasr va nazm uyg’unligi liro-epik nasriy uslubning o‘ziga xosligi va poetik til jozibadorligi misolida yoritilgan. Ifoda vositalari majmui mutanosibligi - tasvir palitrasи rang-barangligi jihatidan G’afur G’ulom kichik nasri Gogol va Cho‘lpon ijodi bilan chog’ishtirilgan. Bunday tadqiqotlar ushbu BMI ni yozishda ilmiy-nazariy asos vazifasini o‘tadi.

**Tadqiqot ob’ekti.** BMI uchun akademik G’afur G’ulomning “Tirilgan murda”, “Netay”, “Shum bola”, “Yodgor” qissalari va ayrim hikoyalari ob’ekt sifatida tanlandi. Shuningdek A.Qodiriyning «O’tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari, Mark Tvenning “Tom Soyer va Geklberri Finning sarguzashtlari” asari qiyosiy tahlilga tortildi.

**Tadqiqot maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi G’afur G’ulom qissalarida davr va shaxs talqini muammosini yozuvchi estetik ideali va yaratilgan davridan ajratmagan holda, milliy istiqlol g’oyasi hamda umuminsjniy tuyg’ular ifodasi nuqtai nazaridan o‘rganishdir.

**Tadqiqotning vazifalari.** BMIda shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- G’afur G’ulomning mohir nosir, taniqli qissanavis sifatida shakllanishi hamda mahoratini oshirib borishiga ta’sir etgan omillarni adabiy ta’sir va badiiy mahorat muammosi nuqtai nazaridan o‘rganish;

---

<sup>17</sup> Назаров Б. Фафур Фулом олами. – Т: Фан, 2004.

<sup>18</sup> Матёкубова Т. Фафур Фулом бадиияти. – Т: Фан ва технология, 2006

- adib nasri takomilida Abdulla Qodiriy romanlarining ta'sirini kuzatish;
- yozuvchi nasriy merosining janriy rang-barangligi va ichki rivojini tahlil va tadqiq qilish;
- adib ijodiy qarashlarining badiiy asarlariga ko'chisi, ya'ni estetik ideal va badiiy tasvir mutanosibligini o'rghanish;
- G'afur G'ulom qissalarida folklor va mumtoz adabiyot an'analarini o'rghanish;
- adib qissalarida bosh qahramon qismatining ijtimoiy davr bilan bog'liqlikda badiiy tahlil qilinishini tahlil qilish;
- G'afur G'ulom qissalarida yumorning ko'lamenti o'rghanish;
- yozuvchi obrazlarni shafqat va hamdardlik negizida tasvirlanish tamoyilini ko'rsatish;
- davr va shaxs talqini muammosini xarakterlar qismatining o'zaro tutashligi negiida o'rghanish.

**BMIning ilmiy yangiliqi.** G'afur G'ulomning "Tirilgan murda", "Netay", "Shum bola", "Yodgor" qissalari XX asr voqeligining badiiy talqinlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar asosida o'rganilgani, yozuvchining ijtimoiy davr va shaxsni badiiy ifoda etishdagi poetic mahorati kashf etilganida namoyon bo'ladi. ZOTAN, ushbu tadqiqot xulosalari yoshlari tarbiyasi, ularning madaniy merosga munosabatini shakllantirish, estetik didini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning nazariy xulosa va amaliy kuzatishlarimiz ana shu muammoni konkret ijodkor bilan bog'lab o'rghanish va o'rgatishga muayyan hissa bo'lib qo'shilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Ushbu BMI G'afur G'ulom qissalarini davr va shaxs talqini muammosini milliy istiqlol mafkurasi talablari asosida o'rghanishga bag'ishlangani bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning natijalari kelgusida amalga oshiriladigan izlanishlar uchun muayyan ahamiyatga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz. BMIning nazariy xulosalaridan oliy o'quv yurtlari va akademik litsey hamda kollejlar, o'rtal umumta'lim maktablari uchun G'afur G'ulom qissalari bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda, uslubiy tavsiyanomalar tuzishda, talabalarga maxsus kurslar o'qitishda foydalanish mumkin.

**BMIning tuzilishi va hajmi.** BMI tarkibiy tuzilishiga ko‘ra Kirish, uchta mustaqil bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

**Birinchi bob:**  
**ADABIY TA'SIR VA BADIY MAHORAT**

### **1.1. G'afur G'ulom nasri takomilida Abdulla Qodiriy romanlarining ta'siri**

Abdulla Qodiriy ijodiy merosi ko‘plab yozuvchilar uchun estetik mahorat namunasi vazifasini o‘tagan. Adabiyotshunosligimizda adib romanlarining Cho‘lpon, Oybek ijodiga ta’siri xususida mauayyan mulohazalar bildirilgan.<sup>19</sup> Biroq, Abdulla Qodiriyning G’afur G’ulom nasriga ta’siri masalasi nisbatan kam tadqiq qilingan. Manbalarning ko‘rsatishicha, G’afur G’ulom XX asrning ulug’ shoiru adiblari: Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Toji Rahmon, Jo‘ra Mahkam, Muhammadsharif So‘fizoda, Husayn Shams kabi ijodkorlar bilan bir necha vaqt yaqin muloqotda bo‘lgan. 1936 yilning yozida Moskvada o‘tkazilgan qurultoyda qatnashish uchun O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasidan vakil sifatida borgan bir guruh yozuvchilar qatorida Abdulla Qodiriy va G’afur G’ulom ham bo‘lgan. Bu haqda G’afur G’ulomning o‘zi<sup>20</sup> va Abdulla Qodiriyning o‘g’li Habibulla Qodiriy<sup>21</sup> qayd qilib o‘tishadi.

Jumladan, G’afur G’ulom e’tirof eitishicha, Abdulla Qodiriy uni o‘ziga yaqinlashtirishga, suhbatlarida hamroh qilishga harakat qilgan. Chamasi u yosh G’afur G’ulom iqtidori va salohiyatini qadrlagan, istiqboliga umid bilan qaragan. Taassufki, G’afur G’ulom 1939 yilda so‘zlagan nutqida o‘zining «bir sho‘ro shoiri» ekanligini isbotlashga, «katta-katta xato» larini e’tirof etishga majbur bo‘ladi. Yuqorida nomlari keltirilgan shaxslarga, xususan, A.Qodiriya nisbatan noxolis munosabatda bo‘ladi. Chunki 1938 yil qatog’onidan yurak oldirib qo‘ygan adabiyot va san’at ahli, xususan G’.G’ulom ham, siyosiy jihatdan xushyor bo‘lishga majbur edi. Shuning uchun, G’.G’ulomning A.Qodiriya

---

<sup>19</sup> Бу ҳақда қаранг: Отаев Р. Тонг юлдузи шуълалари. // Шарқ юлдузи, 1989. № 1; Каримов Б. Қодирий кадри. – Т: 2003, – Б 30-35; Куронов Д. Чўлпон насири поэтикаси. – Т : Шарқ, 2004 – Б. 237-263

<sup>20</sup> Faafur Fulom. Mukammal asarlar tўплами. 12 томлик. 12 том. – Т : Fan, 1989 – Б. 9. (БМИда Faafur Fulom маъруза ва мактубларидан келтирилган иктибослар шу нашрдан олинди.Р.У.)

<sup>21</sup> Xabibulla Qodiriy. Otam ҳақида. Хотиралар. – Т: 1983.

bo‘lgan adabiy-siyosiy munosabati haqida shoshmashosharlik bilan xulosaga kelish to‘g’ri emas. Qolaversa, shaxsiy munosabatlar tabiatan g’oyat murakkab bo‘lgan badiiy ijod va o‘zaro ta’sir jarayoniga to‘g’ridan to‘g’ri tadbiq etilmasligi lozim. Shubhasiz, bu ikkala san’atkor ijodida o‘zaro bir-biriga yaqin va mushtarak jihatlar anchagina.

Masalan, biz Abdulla Qodiriy romanlari bilan G’afur G’ulom qissa va hikoyalarini kuzatar ekanmiz quyidagi yo‘snlarda o‘zaro mushtaraklik ko‘zga tashlanishining guvohi bo‘lamiz:

- a) voqealar talqinida;
- b) qahramonlar ruhiy kechinmalarini ifodalashda;
- v) xarakterlar dramatizmi ifodasida;
- g) ijodkorning hayotga, voqelikka, insonga munosabati va badiiy-estetik qarashlarida.

Bunga ishonch hosil qilish uchun biz dastavval, A.Qodiriy romanlari bilan G’afur G’ulomning «Qizaloq», «Netay» asarlarlarining ayrim o‘rinlarini qiyoslab ko‘ramiz. «Qizaloq» hikoyasi va «Netay» qissasi o‘zining janriy xususiyatlari, yozuvchi g’oyaviy-badiiy niyati, uslubiy o‘ziga xosligi bilan «Mehrobdan chayon» romanidan farq qiladi. Biroq ulardagi ayrim voqealar badiiy talqini, qahramonlar ruhiy kechinmalari ifodasida ajib bir uyg’unlik ham mavjud. Jumladan, «Mehrobdan chayon» romanida Ra’no xonga unashtirilgach, taqdirga tan berib o‘tirmay, Anvar bilan birgalikda o‘z erkin hayoti, baxti uchun kurash yo‘llarini izlaydi va ular bir kechadayoq Mahdum xonadonini tark etishadi. Xuddi shunga o‘xhash voqea «Qizaloq» hikoyasi uchun asos qilib olinadi. Hikoya qahramoni Ibay “Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar singari oq-qorani taniydigan, hukumat ishlarida ishlaydigan yigit. Mukarrama ota-onada ra'yiga qarshi borib, sevgilisi Ibay bilan ota uyidan bosh olib ketadi. Mazkur voqea talqinida roman qahramonlari bilan hikoya qahramonlari qismati o‘rtasida mushtaraklik namoyon bo‘ladi. Bu avvalo, ikkala asar qahramonlari qalbidagi mehr va sog’inch tuyg’ulari tasvirida kuzatiladi. Roman qahramoni Ra’no ham, hikoya qahramoni Mukarrama ham uyidan ketgach, tez kunda o‘z tug’ilib o‘sgan

uyi va ota-onasini sog'inib qolishadi. O'z jasorati bilan Anvarni lol qoldirgan Ra'no ba'zan ko'z yoshi to'kib, yigitni xunob qiladi. Anvar unga dalda berib: «...*Biz Toshkentga yetgan kunimizoq sog'ligimizni va uzrimizni aytib xat yozamiz*», - deydi. Ma'lum vaqt o'tib, bu voqealar eskirgach, Qo'qonga o'zimiz kelishimiz mumkin, deb qizni yupatadi. Bunda xonning g'azabidan, ota-onas hijronidan qo'rqlmay, ularning boshiga tushishi mumkin bo'lgan balo-qazolarni o'yamasdan o'z baxti yo'lida jasorat bilan kurashga otlangan qiz hissiyotlari hayotiy, jonli va asosli aks ettirilgan. Mazkur o'rinda «*tasvir yana xolis, izchil realistik o'zanga tushib oladi*»<sup>22</sup>

«Qizaloq» hikoyasidagi Mukarramaning ruhiy kechinmalari ifodasida Ra'noning ruhiy tuyg'ulariga uyg'unlik kuzatiladi. Yillar o'tib, Ibay va Mukarramadan xabarnoma keladi. Maktubda ikkala yosh Andijonda baxtli hayot kechirishayotgani bayon etilib, bo'lib o'tgan ishlar uchun ota-onadan uzr so'rashadi. Unda qizning bu ishlardan pushaymonligi, ota-onasini bir ko'rishga intazorligi, agar izn berishsa qaytib kelishlari mumkinligi haqidagi ko'ngil izhori keltiriladi. Bu o'rinda har ikkala adib tasvirida muayyan o'ziga xoslik namoyon bo'ladi.

G'afur G'ulom hikoyasida ota-onas yoshlarning gunohini kechirib, xat yozishgach, ular qaytib kelishadi. Yangi oilada qiz farzand dunyoga kelishi bilan hikoya nihoyalanadi. Hikoyada qiz qalbidagi tavba, ota-onas qalbidagi mehru shafqat o'ziga xos ta'sirchan uslubda tasvirlangan. «Mehrobdan chayon» romani epilogida esa, Xudoyorxonadan avfnoma borgachgina, Anvar bilan Ra'no Toshkentdan Qo'qonga qaytib kelishgani haqida ma'lumot beriladi. Ikkala asarda ham yoshlarning o'z baxti va erkin hayoti uchun kurashlari va ularning orzu niyatlari ro'yobga chiqishi ishonarli tarzda yoritilgan.

Yozuvchilar har bir detal va holat tasviriga alohida e'tibor bilan yondashishgan. Romanda Anvar bilan Ra'no uylaridan ketgan o'sha kechadagi qizning tashqi ko'rinishi, aniqrog'i kiyimi masalasi dikkatni jalb qiladi. Yigit hech kutmaganda qiz erkakcha kiyinib oladi. «Paranji ol, Ra'no», - deb turgan

---

<sup>22</sup> Норматов У. Кодирий боғи. – Т : Ёзувчи, 1995 – Б. 173

Anvar o‘z yonida turgan «o‘spirin yigit» ni ko‘rib, uning tadbirkorligiga lol qoladi. Yozuvchi bu o‘rinda o‘z baxti va kelajagi uchun dadil kurashga otlangan qizning jasoratini aniq yoritish uchun ushbu tasvirga murojaat qilgan. «Qizaloq» da bu holat tasviri birmuncha yalang’ochroq bo‘lib, unda tashabbuskorlik ko‘proq yigit qo‘lida. Ibayning tavsiyasi bilan qiz sahar chog’i paranjisiz, ochiq holda uydan ketadi. Ikkala asarda ham adiblar tanlagan tasvir usullari yoshlarning erkin muhabbat va baxtli hayot uchun dadil qadamlarini realistik tarzda aks ettirishga yordam bergen.

Asarlardagi ota-onalar ruhiy kechinmalari tasviri ham e’tiborga molik. Romandagi Solih Mahdumning fojia xabarini eshitgan paytdagi ahvoli g’oyatda achinarli va ayanchli bo‘lib, el-yurt oldida sharmanda bo‘lgan ota qayg’u bilan yig’lab: «*Ilohi juvonmarg bo‘lsin, meni yerga qaratdi*», -deydi. Nigor Oyim esa chorasiz holda piq-piq yig’laydi.

Hikoyada bu dahshatli xabarni eshitgan Zulayho xola ayyuxonnas solib yig’laydi. Chorasiz ona qizini «oq» qilib, Ibayni qarg’aydi. Otasi Shokir aka esa Ibaylarnikiga borib, to‘s-to‘palon ko‘targanidan natija chiqmagach, uni «duoyi bad» qiladi. Mazkur o‘rinda har ikkala asarda ham ro‘y bergen mudhish voqeani haqqoniy aks ettirish va kutilmagan xabarning ota-onaga ko‘rsatgan ta’sirini yoritishda xalq qarg’ishlari keng qo‘llanilgan. Bunda qarg’ishlar bir tomondan qahramonlar ruhiy kechinmalarini yoritishga yordam bersa, yana bir jihatdan asarlarning milliy koloritini kuchaytirishga xizmat qiladi.

G’afur G’ulom hikoyasida A.Qodiriy ta’siri kuchli bo‘lishi bilan birga, yolg’iz farzandga bo‘lgan mehr-muhabbat, sog’inch hissi o‘ziga xos tarzda tasvirlanadi. Farzandini bir ko‘rishga zor bo‘lgan ota-onaga ahvoli lirik chekinish vositasida G’afur G’ulomga xos bo‘lgan g’oyatda ta’sirchan uslubda yoritib berilgan. Xalq orasida tarqalgan ayrim udum va odatlar tasvirida ham «Mehrobdan chayon» romani va «Qizaloq» hikoyasida o‘xshashliklar bor. SHunday odatlardan biri sovchi yuborish oldidan qizni ko‘rib kelishdir.

Ra’noni xonga tavsiya qilish oldidan o‘zini «onhazratning otgan o‘qlari» deb hisoblaydigan Gulshan boshqa hovliga adashib kirib qolgan qiyofada

Mahdum xonadoniga kelib, qizning haqiqatdan malikalikka munosib ekaniga ishonch hosil qilgachgina bu haqda xonga arz qiladi. Begona ayol qiyofasidagi quida tomon vakillarining «adashib» kelib qolish epizodi «Qizaloq» hikoyasida ham uchraydi. Umuman, G’afur G’ulom asarlari poetikasida Qodiriy romanlari sezilarli iz qoldirgan. Ayni paytda, ijodiy ta’sirlanish bilan birga, G’afur G’ulom nasriy asarlarida adibning o‘z uslubiga xos jihatlarni ham namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi kabi ijodiy ta’sirlanish G’afur G’ulom qissalarida ham kuzatiladi.

Ma’lumki, «Mehrobdan chayon» romani kompozitsiyasida «Zulm o‘chog’i», «Xon ko‘ngil ochmoqchi», «Qirq qizlar», «Nozik» boblari mavjud bo‘lib, bir qarashda mazkur boblar yetakchi voqealari bilan unchalik bog’lanmagandek ko‘rinadi. Biroq bu o‘rirlarni Anvar bilan Ra’noni istiqbolda kutayotgan hayotning oldindan chizilgan kartinasi deb tushunilsa, masala birmuncha oydinlashadi. G’afur G’ulomning «Netay» qissasida asosiy voqealar boshlanishidan oldin yozuvchi uzundan-uzoq lirik kirishlar qilib, o‘sha zamon to‘g’risida, qahramonlar yashayotgan muhit haqida, fohishaxona va undagi ayollarning ayanchli hayoti xususida o‘z mulohazalarini bayon etadi. Bunday lirik kirishlar asar voqealari bilan mantiqan bog’langan bo‘lib, Netay qiz taqdirini hal etishda, uning taqdiri fojiali tus olishida shu muhitning ta’siri katta bo‘lganini ta’kidlashga xizmat qiladi. Qisqasi davr va muhit haqidagi qissadagi fikr-mulohazalar Netayni kutayotgan hayot kartinasi desak mubolog’ali bo‘lmaydi.

A.Qodiriy romanining «Qirq qizlar» bobida keltirilgan Nazmi bilan qissadagi Netay taqdirlari, fojiaviy hayoti, ruhiy iztiroblari o‘rtasida ham mushtarakliklar mavjud. To‘y kuni yaqin bo‘lsa-da, sevganidan ayrilib, otasining uch yillik solig’i badaliga Xudoyorga tortiq qilingan Nazmi nomusi toptalib, «qirq qizlar»ga qo‘shilgan. Bu shoira qiz ikki yil yig’lab, zoru nolon o‘n gulidan bir guli ochilmay, bevaqt yorug’ olamni tark etadi. Qodiriy Nazmi siyemosida tutqin qizlarning achchiq taqdiriyu, ko‘ngil o‘rtanishlarini mungli ohanglarda ifodalaydi. G’.G’ulomning «Netay» qissasida esa, himoyasiz yosh qiz Toshkentda bir kecha mehmon bo‘lgan Amir Olimxonga tortiq qilinadi. Netay

ham o‘z ahvolini, fig’onu nolalarini Nazmi kabi ashula bilan ifodalashi qissaning estetik ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Badiiy asarning muhim uzvlaridan biri portret tasviri bo‘lib, qahramonning botiniy va zohiriyligi jihatlari namoyon bo‘lishida uning o‘rni kattadir. Yuksak san’atkorlar qahramon portreti tasviriga alohida ahamiyat bilan qaraganlar va ularni o‘z estetik idealiga monand ravishda chizishga harakat qilganlar. A.Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romanidagi Jannat kampir xunuklikning tipik vakili sifatida ta’riflanadi va uning portreti shunday chiziladi: «.erdan bichib olgandek pak-pakana, burni yuzi bilan baravar deyarli tep-tekis, ko‘zi qoqqan qoziq o‘rnidek chup-chuqur, og’zi qulog’i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og’riqlarnikidek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin edi».

«Netay» qissasida fohishaxonada qizga berkitilgan kampir tasviri shunga monand: «...*kemshik, tishqoli surtilgan tishli, burushik og’izli...*», «*ivshiq barmoqli*» tarzda keltiriladi. Tasvirdagi «tish», «og’iz», «barmoq», «yuz» kabilar qahramon ma’naviy qiyofasini ochishda muhim bir kalit vazifasini bajaradi.

G’.G’ulom qissalarida A.Qodiriy ijodida mahorat bilan qo‘llanilgan sir saqlash usulidan ham san’atkorona foydalanilgan. Netayning Semyonlar oilasiga qanday kelib qolgani sir tutilib, er-xotinning qizga ko‘rsatgan mehribonchiliklari, uni erkalatishlari keltirilgachgina, bu «notanish tilda gapiruvchi» kishilarning kimligi va Netayning bu xonadonga qanday kelib qolgani aytildi. Asarda Semyondan qizni tortib olish uchun «tog’a» qiyofasida kelgan Samadning nomi sir tutilib, dastlab uning tashqi ko‘rinishigina chiziladi. Uning kim ekanligi qozixonada ma’lum bo‘ladi. Qissada bunday usulning qo‘llanilishi kitobxonning voqealar rivojiga qiziqishini kuchaytirish bilan birga, qahramonlar ruhiy olamini ta’sirchan ko‘rsatib berishga yordam beradi.

*Kuzatilgan qiyoslarni tubandagicha xulosalashimiz mumkin:*

Abdulla Qodiriy va G’afur G’ulom shaxsiy munosabatlari rasmiy chiqishlardagi ma’lumotlar doirasidagina izohlansa, ikki adib qalbining ichki qatlamlariga yetib borish ancha mushkullashadi. Bizningcha, A.Qodiriy G’afur

G’ulom iqtidori va salohiyatini qadrlagan.. Uning istiqboliga umid bilan qaragan. Yosh qalamkash adabiy qiyofasini milliy e’tiqod va o‘zi tayangan estetik mezonlar asosida shakllantirishga uringan. G’afur G’ulom ham bu xayrli ishga xayrixoh bo‘lgan. Biroq mash’um falokatdan so‘ng G’.G’ulom so‘zlagan nutqda uning o‘zini ehtimol tutilgan halokatlardan himoya qilishga intilish tuyg’usi kuchli namoyon bo‘ladi.

Albtta, badiiy ijod va ijodiy ta’sirlanish o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab jarayon. Qodiriy romanlari bilan G’afur G’ulomning «Qizaloq» hikoyasi, «Netay» qissasi misolidagi yuqoridagi kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, har ikkala ulkan san’atkorning hayotga va vokelikka munosabati, badiiy-estetik talqini, ruhiy kechinmalar, qalb dramatizmini aks ettirishda lirik kirish, lirik chekinish, qistirma epizod kabi vositalar, sir saqlash kabi usullardan foydalanishda o‘zaro yaqinliklar ko‘zga tashlanadi. SHuningdek, Anvar-Ra’no-Solih Mahdum-Nigor Oyim; Ibay-Mukarrama-Shokir aka-Zulayho xola; Gulshan va Ibayning yangasi (qo‘shnisi bilan), Nazmi va Netay, Jannat kampir va qo‘shmachi kampir (ismi keltirilmagan ) kabi qahamonlarning ichki va tashqi portreti, hatti-harakatlari, muomala-munosabatlari talqinida ancha mushtarak jihatlar mavjudligi ayon bo‘ladi.

Qiyosga tortilgan asarlar janr e’tibori bilan (roman, qissa, hikoya) farqlanishga qarab, har ikkala adibda o‘ziga xoslik bo‘lishi tabiiy, albatta. Biroq, bundan individuallikdan qat’iy nazar, G’afur G’ulom talqinlarida faktlarga ko‘p bog’lanish, publitsistik bayonga berilish, kompozitsion tarqoqlik, qahramonlardan muayyan tomonning pozitsiyaisiga muallifning munosabati aniq ifodalanishi kabi hollar kuzatiladi. Shubhasiz, Abdulla Qodiriyning G’afur G’ulomga ta’siri yuqorida kuzatilgan hollardangina iborat emas. Kelajakda adabiy ta’sir muammolarini individual uslub va poetik mahorat muammolariga bog’lab teran o‘rganish yangi xulosalar berishi mumkin.

## **1.2. Yozuvchi nasriy merosining janriy rang-barangligi va ichki rivoji**

Xalq ijodining g'oyaviy-estetik an'analaridan juda keng ko'lamda va chuqr ijodiy o'rgangan so'z ustasi G'afur G'ulom hayoti va ijodi uchun folklor juda katta ahamiyatga molik bo'lgan buyuk maktab vazifasini o'tagan. Adib xalq hayoti va orzu-tilaklarini, uning ruhiy olami, psixologiyasi, xarakteri, ma'naviyati, estetik didi va badiiy tafakkuri, boy tilini folklordan o'qib o'rgandi. Aytishlaricha, Nasriddin Afandi fazilatlarining ko'pginasi uning shaxsiyatiga singib ham ketgan ekan. Hatto shoirning o'zi ham «Bizning uyga qo'nib o'ting, Do'stlarim» she'rida: «*G'afur degan bir Nasriddin kitobi*» deb, o'z tabiatiga ishora qiladi.

G'afur G'ulom shaxsiyati va ijodiy merosida xalq ijodi ta'sirining nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarini topish mumkin: Masalan:

1. «Afandi o'lmaydigan bo'ldi» hajviyasida folklor asarlari qayta ishlangan.
2. «Hasan Kayfiy» hikoyasi folklorga o'xshatma tarzida yozilgan.
3. «Tirilgan murda» qissasi folklor motivi, xalq ijodi obrazlariga xos xususiyatlar asosida bayon qilingan. Mulla Mamajon xarakteri mohiyati shu negizda tipiklashtirilgan.

“Shum bola” qissasidagi sarguzasht syujet turi va kompozitsiya folklorga borib tutashadi. Yozuvchi «Uch yolg'ondan qirq yolg'on» ertagiga o'xshagan g'oyat jozibali yolg'on to'qib, juda qiziq kulgili vaziyat-holat yaratgan. G'.G'ulomning “Shum bola” qissasida rivoyaning personaj tilidan hikoya qilish usulini qo'llashi o'ziga xos badiiy samara berdi. Bordiyu, qissada rivoya yozuvchi tilidan olib borilganida, undagi ayrim epizodlar o'quvchida shubha uyg'otishi, ishonchszilik qo'zg'ashi mumkin edi. Pesonaj – shum bola tilidan olib borilganida esa, biroz orttirilgandek ko'ringan o'rinlar hikoyachining fe'liga yo'yiladi. Uning xarakter xususiyatlarini yorqinroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

4. «Yodgor» qissasidagi kompozitsion qoliplash usuli ham folklordan oziqlanadi. Adib qissada latifa, dostonchilik, qiziqchilikka xos xususiyatlar, shuningdek, satira va yumordan ham ijodiy o'rgangan.

Muhimi, xalq, ijodi G’afur G’ulom nasrida beg’araz hazil-mutoyiba va qahramonlik, hayotbaxshlik, donishmandlik ruhini yanada kuchaytirgan. Adib hatto o‘nlab fel’etonlarini Nasriddin Afandi latifalari syujeti, shakli asosiga ko‘rgan va shu yo‘l bilan ularni hatto satirik hikoya darajasiga ko‘tarib yuborgan. «Xotinga olib berilmagan kavsh», «Oyoq olishiga qaraydi», «Shudgorda quyruq... singari asarlar fikrimizni dalillaydi.

Shuning uchun G’afur G’ulomning kuldirib yig’latadigan va yig’latib kuldiradigan hajviy hikoya va qissalari el orasida shuhrat topdi. U o‘zbek realistik hikoyachiligi hamda qissachiligiga beqiyos hissa qo‘shtgan adiblardan biri bo‘ldi va umrining oxirigacha bu sohada muvaffaqiyatli qalam tebratdi.

G’afur G’ulomning hikoyanavisligi «Jo‘rabo‘za», «Yigit» (1931), «Kulgi hikoyalari» (1932) kabi to‘plamlarida yorqin namoyon bo‘ldi. Uning dastlabki asarlarida o‘sha davr o‘zbek hikoyachiligidagi tavsifchilik publisistik tadqiqqa ruju qo‘yish, konfliktni yuridik tarzda hal etishga moyillik kabi kamchiliklar kuzga tashlanadi («Arkning yemirilishi», «Ikki janggoh»). ko‘pgina satirik hikoyalarida syujetning qiziqarli bo‘lishiga, fabulaga diqqatni qaratsa, boshqalarida xarakterlar o‘rtasidagi keskin to‘qnashuvlarni ko‘rsatadi va ularning ruhiy dunyosini ochadi. «Hiylai shar’iy» (1930) hikoyasi latifani eslatadi, unda o‘zi aytganidek, «kuldirib yig’latadi, yig’latib kuldiradi». «Yigit» (1929) hikoyasida muqaddas muxabbat tuyg’usi bilan o‘ynagan yigitni chiroyli usulda fosh etadi. Qoloqlikni kulgi qiluvchi «Kim aybdor» (1932), «To‘rt xangoma» (1941) humoristik hikoyalari ham latifanamodir. «To‘rt xangoma»dagi ikkinchi xangomani eslaylik. Qovulnazар pulini omonat kassaga qo‘ymay, bir parcha guldor satinka o‘rab xazonning ichiga berkitib qo‘yadi. Bir kuni sigirining og’zida o‘sha tugunchani ko‘rib qoladi. Sigir yutishga urinadi, Qovulnazар sug’urib olish uchun chiranadi, oxiri sigir yutib yuboradi. Qovulnazар xayron, birov sigirni suyib qornidan pulingni ol, desa, boshqasi kavsh qaytarishini kut, extimol, chiqarib yuborar, Deb maslahat beradi. Birovning gapi bilan sigirni bozorga olib boradi va jig’ildonida uch yarim ming sulkavoy ham bor, deb ikki

barobar ortiq narx qo‘yib sotishga urinadi. ko‘rinadiki, yozuvchi qahramonni kulgili vaziyatga tushirib qo‘yib, kulgi yaratadi va uning qoloqligidan kuladi.

G’afur G’ulom ko‘pgina lirk-dramatik yo‘nalishdagi hikoyalar ham yozdi. Ularda inson fojiasini va ularni shu holga solgan muhit, sharoitni ko‘rsatdi. U 1965 yili «Mening o‘g’rigina bolam» lirk-dramatik va «Hasan Kayfiy» humoristik hikoyasini e’lon qildi. Birinchisiga yozuvchi voqeiy hikoya, ikkinchisiga esa, xalqimizning humoristik ertaklaridan, deb izoh beradi. Ikkalasi ikki xil ifoda yo‘sinda yozilgan, lekin ikkalasi ham jahon hikoyachiligi darajasidagi yetuk, mukammal asarlardir. Ularda G’afur G’ulom ijodining yuragi bo‘lmish insonparvarlik ruhi baland jaranglaydi. U mehnatkash, pok, halol, o‘z aql-farosati, o‘zining peshona teri bilan kun kechiruvchi va hayotni, jamiyatni mukammal qilishga intilgan insonni faol himoya qildi, uning taqdiri, buguni va ertasi uchun san’atkorlik qalbi bilan umr bo‘yi kurash olib bordi.

Jumladan, «Mening o‘g’rigina bolam» hikoyasida o‘zi guvoh bo‘lgan oddiy voqeja asosida shafqatsiz jamiyatni va shunday sharoitda ham o‘zining insonligiga, mehr-oqibatiga zarracha putur yetkazmagan insonni ko‘rsatadi. Yozuvchi o‘z ota-onasi o‘lib, uchta singlisi bilan katta onasi – «qora buvisi» qo‘lida qolgan paytidagi uylariga o‘g’ri kelishi voqeasini so‘zlaydi. Birinchi jahon urushi payti, «zamon chappasiga ketgan» vaqt, barcha kosiblar singan, ish yo‘q hamma och-yalang’och. Oddiy kosib, ishsiz yigit ikki bolasi, xotini, onasini boqa olmay, o‘g’irlik qilishga majbur bo‘ladi. Kechasi «Qora buvi» ning tomiga chiqqanida qo‘qqisdan aksirib yuboradi. Yetimlar taqdirini o‘ylab, mijja qoqmay yotgan «qora buvi», «*O‘g’rigina bolam, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydim!*», -deydi. «Qora buvi»ning mehribonona, samimiyl munosabati o‘g’rining ham xasrat qopini ochib yuboradi. U tomda, kampir pastda dardlashadilar, urushning kasofati, xalqning qashshoq hayoti, shaharning yetimga to‘lib ketgani, xullas, osmon uzoq yer qattiqligi to‘g’risida suhbat quradilar. O‘g’rining so‘zidan ellikboshilarning poraxo‘rligi ham, boylaru amaldorlarning, tuzumning shafqatsizligi ham oshkor bo‘ladi. Yozuvchi ayni paytda, shu kambag’allarda insoniylik, odamiylik, mehr-shafqat tuyg’usi saqlanib qolganini

ta'kidlaydi: «qora buvi» o‘g’rini uyida bor bo‘lgan ikkitagina zog’ora non bilan choy ichishga taklif qiladi, u esa «*Meni tanib qolasiz, juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q andisham bor, uyalaman*», deydi. «Qora buvi» uyda yarim pudlik qozon bor, hozir bunda ovqat pishirishga masalliq ham yetmaydi, «*qutlug’ uydan ko‘ruq ketasanmi, bolam...* *Shuni obketaqol. Sotib kuningga yaratarsan, o‘g’rigina bolam*», deydi. O‘g’ri kunmaydi, kelajakda yaxshi kunlar kelishiga umid bildiradi. Ko‘rinadiki, hikoyada ona – farzandlik munosabatiga xos samimiyligi, chin insoniy muhit yaratilgan. Shuning uchun ham, u kitobxonni rom qiladi, ishontiradi.

G’afur G’ulom talay ocherklar ham yozdi, bo‘larda ham «Hasan Kayfiy» dagidek aql-zakovatni, halol mehnatni ulug’ladi. U o‘z ocherklarini «ocherklashgan hikoya», deydi, bu bilan ocherklarida quruq hujjat emas, balki inson taqdiri turganligiga ishora qiladi. G’afur G’ulom badiiy publitsistikada ustoz so‘z san’atkori sifatida tanildi va umrining oxirigacha bu sohada bayroqdir bo‘ldi. Uning publitsistikasi extirosli nutq, chuqur mushohada, falsafiy muhokama bilan birga kichik-kichik hikoyachalar, rivoyatlar, qiziq voqealari va yorqin detallar, latifalar, muhim hujjatlar asosiga qurilgan. Bu janrda u teran tarixchi hamda jarchi-tashviqotchi sifatida namoyon bo‘ldi. Uning publitsistikasidagi bosh badiiy tamoyil tarixiy chog’ishtirishdir. U «zehnimda aks etgan asriy hodisalarni bir muarrih bir tarixshunos sifatida shu qog’ozlarda qayd qilib o‘tmoqchiman», degan edi. O‘zi ko‘rgan, bilgan voqealarni guvoh sifatida bayon etib, kishini ishontirdi. Bunday «guvohlik berib ayta olish»ning sababi esa, o‘zini xalqning bir parchasi sifatida tasavvur etishi, u bilan doim hamnafas bo‘lishi va shu xalq nomidan so‘zlashi edi. Adib: «*zehnim sizniki, men qalam ushlaydigan barmoq bo‘lsam kifoya*», deydi.

Demak, G’afur G’ulom o‘z g’oyaviy niyati, maqsadi, material talabidan kelib chiqib, turli janrlarga murojaat etadi, xilma-xil bayon usullari va ifoda yo‘llarini qo‘llaydi. Bu holni uning qissalarida ham kuzatish mumkin.

Qissa (arabcha. – *hikoyat, sarguzasht* ) ma’nolarini anglatadi. U ikki xil ma’noda qo’llaniladi:

1. Xalq og’zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagи asarlarga nisbatan qo’llanganida, qahramon hayoti va sarguzashtlari hikoya qilinishi, ya’ni asarning rivoyaviy xarakteri nazarda tutiladi. Bu o‘rinda og’zaki ijro, variantlilik kabi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, payg’ambarlar qissasi: (Rabg’uziyning “Qisas ul-anbiyo”, Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”) asarlari va og’zaki ijod namunalari qayta ishlanishi – xalq kitoblari: (“Qissai Mashrab”, “Ibrohim Adham qissasi”, “Zufunun qissasi”) kabilar nazarda tutiladi.<sup>23</sup>

2. Epik turning hikoya va roman qatorida sanaluvchi qissa (povest) ma’nosida qo’llaniladi. Biz qissa va povestni bir janrning ikki tildagi nomlanishi deb bilamiz. Zotan, epik asarlarni janrlarga ajratishda o‘rta epik shakl: qissa (povest) eposning asosiy janrlaridan biri sanaladi. Lekin janrga ajratish chog’ida adabiyotshunoslarimiz uch muhim tamoyilga asoslanishadi:

1. *Janrning hayotni badiiy qamrash ko’lami* janr xususiyatini belgilovchi unsur sifatida olinganida, qissaning janrlik xususiyati uning qahramon hayotidan butun bir bosqichni qamrab olishi bilan belgilanadi va qissa o‘rta epik janrga mansub sanaladi.

2. *Asarda qo'yilgan muammolar ko'lami* janr xususiyatini belgilovchi unsur sifatida olinganida, qissa markazida qahramon xarakteri turadi. Ya’ni, asosiy e’tibor qahramonning asarda tutgan mavqeい, ahamiyati, vazifasiga qaratiladi. Qissa muallifi uchun qahramon asosiy maqsad bo‘lib, voqeа-hodisalar tasviri shu maqsadni amalga oshiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

3. *Badiiy shakl, ya’ni syujetning qamrovi* janr xususiyatini belgilovchi unsur sifatida olinganida, qissa syujeti asosan bosh qahramon tevaragida uyushishi kuzatiladi<sup>24</sup>.

<sup>23</sup> Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т: Академнашр , 2010 – Б. 380-381

<sup>24</sup> Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т: Академнашр , 2010 – Б. 381

Demak, epik asarlar (hikoya, qissa va roman) larni janrga ajratish chog’ida yuqoridagi har uchala tamoyilni yaxlitlikda olib qarash lozim.

Ma’lumki, G’afur G’ulom bir necha qissalar yozgan bo‘lsa ham, ular o‘z ifoda tarzi, bayon usuli jihatidan bir-biriga o‘xshamaydi. Masalan: «Netay» (1931) asari lirk-publitsistik yo‘sinda uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. «Tirilgan murda» (1934) satirik yo‘sinda bo‘lib, qahramonning esdalik daftari shaklida yozilgan. «Yodgor» (1936) esa, humoristik ohangda bo‘lib, voqeani bosh qahramonning o‘zi hikoya qiladi. Unda «Ming bir kecha»ga o‘xshagan ertaklarga xos bayon va qoliplash (xikoya ichida hikoya qilish) yo‘lidan foydalaniladi. «Shum bola» (1936, kengaytirilgan nusxasi, 1963) qissasi sarguzasht syujet asosiga qurilgan. Voqeani qahramonning o‘zi aytadi va asar hajv-hazil uslubida bitiladi.

Shunga qaramasdan, yuqoridagi qissalarning barchasini bir-biri bilan jips birlashtiradigan o‘q tomir bor. Bu – insonning odamiyligi, mehr-shafqati, pok qalbi va mehnatsevarligi, chidam-bardoshlilagini ochish,. shu insonni himoya etish, uning orzu-armoni uchun kurashish g’oyasidir.

Badiiy asarning mazmuni u yoxud bu shaklda ifodalanadi. Zotan, shakl mazmunning tashqi ko‘rinishi o‘laroq, asarga go‘zallik bag’ishlaydi. Mazmun va shakl mutanosibligi mukammallik garovidir. Peyzaj tasviri ham badiiy asarning tarkibiy uzvlaridan biri bo‘lgan shakl hodisasi bo‘lib, mazmun ifodasiga hizmat qiladi. Demak, G’.G’ulomning tabiatga munosabatini, uning asarlaridagi tabiat tasvirini o‘rganish ijodkor mahoratining ayrim qirralarini yoritishga ham imkon beradi. Peyzaj yaratish san’atining ba’zi jihatlari milliy adabiyotshunoslikda Azizzon Qayumov, Yoqubjon Ishoqov, Mashhura Sultonova, Fayzulla Nabiev, Avtondil Erkinov, Normurod Yo‘ldoshev tadqiqotlarida muayyan so‘z san’atkorining mahorati bilan bog’liq tarzda yoritilgan.

G’afur G’ulom nasrida peyzaj tasviri masalasi ancha serqirradir. Biz mazkur muammoga BMI doirasida nosirming «Qizaloq» (1928), «Puch umidlar» (1928), «Jo‘rabo‘za» (1929), «Soyalar» (1930), ”Cho‘tir xotinning tolei”(1933) hikoyalari misolida to‘xtalishga harakat qildik. Yuqorida a’kidlanganiday,

«Qizaloq» hikoyasida ota-onas noroziligiga qaramasdan qovushgan Mukarrama va mulla yigit Ibayning erkin muhabbatni haqida hikoya qilingan. Epik bayonchi bo‘lgan muallif ta’kidlashicha, yoshlardan dastlab qattiq ranjigan ota-onas SHokir aka va Zulayho xola oradan fursatlar o‘tib, ularning uzrini qabul qiladilar. Rahm-shafqat va mehr bilan ularni quchog’iga oladilar. Hikoyaga nevara qizaloqning tug’ilishiyu, oila shodligi bilan yakun yasaladi. Ya’ni G’.G’ulom mumtoz eposning yangi avlod tug’ilishi (passionar shaxs) bilan eski aqidalar barham topishi bilan bog’liq an’alariga ergashadi.

Hikoyada G’afur G’ulom yoshlikka xos shijoat, erkin havolarga intilish tuyg’usini «yoqimli shabada»ga qiyoslaydi. Tong oldidagi so‘lim manzarani ertakona ohangda quvonch va mung aralash bir kayfiyatda chizadi. Jumladan, qishning eng uzun va qorong’u tuni – «shabi yaldo» o‘tmish hayotining mungli, zavolli manzaralaridan, yurak dardlaridan darak beradi. Yozuvchi tong darakchisi - xo‘rozning nihoyatda pokligi, haqqush orqali o‘zining olis qarindoshlarini voqif etib, saharda «ku-ku» lashi tasviri bekorga keltirilmaydi. Bedorlik va musaffo tongga xos musaffolik, shaffoflik tasvirlaridan ma’lum bo‘lmoqdaki, adib ikki yoshning hatti-harakatlariga xayrixoh. Xo‘rozda nekbin bir jasoratni, mardlikni, xursandlikni ifoda etsa, olam elini azaldan o‘rtagan ishq tuyg’usini ulug’lashda xashaklar hirmoniga o‘t qo‘ygan haqqushning o‘qli nidolariga ishora qilish orqali insonga xos bu tuyg’uning tarixiga urg’u beradi.

G’afur G’ulom keng sahrolarga oshufta Zuhro yulduzi haqida, uning «yuragi» karvon qo‘ng’irog’ining tovushiga hamohangligi xususida so‘zlaydi. Bir qarashda tong nasimi, xo‘roz, haqqush, yulduz bir-biriga unchalik bog’lanmaydigandek tuyulishi mumkin. Biroq ularning hammasini erkinlik, jasorat, bedorlik, dardkashlik yaqinlashtiradi. Muhimi, G’afur G’ulom peyzaj manzaralarini insoniy mehr-shafqat tuyg’usini ifodalashga xizmat qildiradi. Yozuvchi hikoyalarida peyzaj manzaralari dunyoviy mehr-muhabbatni asrash mumkinligi erkin yurak talpinishlarini ardoqlash nuqtasida qahramonlar taqdiri bilan tutashadi.

Adib hikoyada xalqimizning samo yoritkichlaridan madad kutish inonch-e'tiqodlaridan ham o'rinni foydalangan. Asarda yulduzlarga aylangan go'zal va bokira qizlar haqidagi afsonaga ishora qilinadi. Yulduzlar – bedorlik va muhabbat ramzi. Bilamizki, Zuhro qadimda xafthaning muborak kuni – jumani bildirgan. SHarq xalqlarida san'at homiysi va nafosat ramzi sanalgan. Zuhro yaxshilik belgisi bo'lib, odamlarga rahmu shafqat va ezgulik keltiradi. Yilning yaxshi kelishi, yomg'irning ko'p yog'ishi, hosilning barakali bo'lishi, bolalarning ko'p tug'ilishi Zuhroga bog'lab talqin qilingan. O'z manzillariga oshiqqan karvonlar olis va mashaqqatli sahrolarni kesib o'tib, adashmay yo'l topishlarida yulduzlarni mo'ljal olishgan. Demak, G'afur G'ulom peyzajdan hikoyada zamonlar qorishiqligini berish, muhabbat va ishq haqidagi fikrlarni tasdiqlash, qahramon ruhiy holati bilan tabiat manzaralarini uyg'unlashtirishda ramziy ifodani kuchaytirib, ta'sirchanlikni oshirishda unumli foydalangan.

«Puch umidlar» ham mavzu e'tibori bilan «Qizaloq» hikoyasiga yaqin bo'lib, asar yangi hayot va erkin muhabbat haqida. Hikoya qahramonlari Zulfiya va Po'latjonlar ham ota-onalarning rizoligiga unchilik ahamiyat bermay turmush quradilar. Biroq Zulfiya uyatsizlik, nomardlik va aldonning qurbanini bo'ladi. Yosh qiz muhabbatining zavol topishi shoshqaloqlik oqibatidir. Nosir qip-qizil anordek nishona ko'rsatgan chillaki shaftolilarga xos tabiiy belgi, alomatlardan so'zlaydi. Hikoyadagi ilk nishona mevalari umid ramzi bo'lsa, «so'zlardan boylangan guldastalar» - muhabbat maktublari qahramon qalbida shirin bir entikish uyg'otadi. Zotan tasarda «yangi zamon guli» - qizlar taqdiri qalamga olinadi.

Syujet liniyasi rivojidan bilamizki, oradan ikki yil o'tib, Zulfiya "kechalari yulduz sanab" chiqadigan va yolg'iz o'g'li bilan ovunadigan bo'ladi. Nosir yana yulduzlarga ishora qilar ekan, bu gal ularning orzular kabi yiroq ekaniga diqqat qaratadi. O'ta zamonaviy bo'lishga intilgan Po'latjon oilaga, farzandiga bemehr bo'la boradi. Nihoyat o'qish niyati borligini bahona qilib, o'z yaqinlarini butkul tark etadi. To'tidek arzanda, go'zal farzandi Solih va Zulfiya bevafolik qurbaniga aylanadilar. Muallif yoshlarni o'ylashga, mulohazakorlikka, oiladek muqaddas tushunchalarni e'zozlashga, o'zaro mehr-muhabbatni ardoqlashga da'vat etadi.

O‘tkinchi tuyg’ularga aldanmaslik haqida ogahlikka chaqiradi. SHu maqsadda u yulduz, chillaki shaftoli, gul, bir juft musicha obrazlariga xos belgi-xususiyatlarga murojaat qiladi.

Adabiyotshunos Yo.Ishoqov peyzaj tasvirining mohiyatsiz o‘z-o‘zicha bir hodisa emas, balki falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy ruhdagi biror g’oya, maqsadni ifoda etish uchun o‘ziga xos vosita ekanligini ta’kidlaydi<sup>25</sup>. G’afur G’ulom hikoyalari misolida bu fikr-mulohazalarning nechog’lik asosli ekanligini kuzatish mumkin.

«Jo‘rabo‘za» hikoyasining qahramoni Ahmadqul hamiyatli, mehnatkash dehqon yigit. U ulfatchilik va bo‘zaxo‘rlikni xush ko‘radigan tengquri Bo‘taning ta’na-dashnomlari, achchiq-quruq gaplari hamiyatiga tekkani uchun ulfatchilikka borib, sayoq bolalarga qo‘silib qoladi. Diqqinafa bu muhit uning uchun tamomila begona edi. Shuning uchun ham, yarim kechasi bo‘lishiga qaramasdan, jo‘raboshilarni-da mensimay, mast-alast holda o‘z uyiga yo‘l oladi. Biroq asov otni boshqara olmay, fojiali tarzda halok bo‘ladi. G’.G’ulom asov ot detali orqali katta hayotiy mazmunni ifoda etadi.

Adib hikoya bayonida tong quyoshining Qo‘ng’iroqtepa orqasidan bo‘g’riqib qaragani-yu, quyoshning ilk shu'lalari teraklarning uchlarigagina tushganini tasvirlaydi. Hikoyaga jalgan etilgan peyzaj manzarasi orqali bo‘g’riqqan va diqqanafas uhitga urg'u beradi. Shuning uchun ham teraklarning ostidagi «quyuq to‘son», «shabnamli yaproqlar», «yuzlari terlagan qovunlar», «ichi bo‘sh suv qovoqlar», «kekkaygan xo‘rozlar» haqida so‘zlaydi.Tasvirdagi manzaralar mohiyatan bir-biriga esh. Bo‘zaxo‘rlik avjiga chiqqan pallada berilgan manzaralarda yaydoq izg’irinning hadik bilmasligi, daraxtlarning sovuqdan qaqshashi, itlarning xurushlaridagi qayg’uli ohang haqida gap boradi. Nosir tabiatdagi bu o‘zgarishlar orqali muqarrar fojiadan ogoh etayotganday tuyuladi. Ulfatlar yoqqan gulxan ham bir sasib, bir yonib turadi. Erkin yonolmay, tutayotgan cho‘jni puflab qo‘yadigan «esli kishi yo‘q». Asov ot uyga egasiz kelganida Ahmadqulning ukalari sovuq bo‘lishiga qaramasdan yalang bosh,

<sup>25</sup> Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т: Фан, 1983, – Б. 22

yalang oyoq yugurib chiqadilar. Ular dastavval shoshib qolishgan bo'lsa ham, qahramonlar tashqi qiyofasi bu oilaning iqtisodiy nochor ahvoliga ishora hamdir. Murda ustida uymalashayotgan qarg'alar va sariq oqsoq it Ahmadqulni izlab borgan mahalla ahlidan, ya'ni jamoadan hurkib qochadi. Demak, G'.G'ulom bunday teran ramziylik asosida Bo'ta va uning sheriklari, keng ma'noda bunga befarq olomonning asov hayot kuchli po'rtanalarida adashgan kimsalar ekaniga ishora qilgan. Tafakkur qudratiga ishongan ahli jamoagina bunday hayotiy illatlardan qutilishiga ishonadi.

G'afur G'ulom mazkur hikoyada hushyorlikka da'vat etish, jamiyat pokligi va erkin mehnat kishisini ulug'lash barobarida, jaholatni ma'rifat bilan yengish g'oyasini ham tasdiqlagan. Tabiat manzaralari personajlar ruhiy olamiga mos tarzda tanlanishi hikoya shakliy go'zalligi, mantiqiy serjiloligi, mazmunining ishonchlilagini ta'minlagan. Chingiz Aytmatov ta'biri bilan aytganda: «*Tabiat bilan umimiyl til topishgan taqdirdagina insoniyat o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqara oladi*»<sup>26</sup>. Shu ma'noda, G'.G'ulom inson kayfiyatini, kechinmalarini, ruhiy tug'yonlarini aks ettirishda tabiat manzaralaridan mohirona foydalangani shubhasiz.

Adibning «Soyalar» hikoyasida Bo'ta, Po'latjon obrazlariga ancha yaqin turuvchi Isa obraziga xos mas'uliyatsizlikka alohida urg'u beriladi. Isa yetti xuftongacha sanqib yurgani holda, mushtipar va mushfiq onasi hamda bo'y yetgan singlisini bog'da yolg'iz qoldiradi. Uning e'tiborsizligi tufayli Yoqutoy nomusi bulg'anadi. Bo'lg'usi kuyov Nizomjon esa, qaysidir jihatlari bilan Ahmadqulga o'xshab ketadi. Chunki u ham o'zini «belida belbog'i bor» lardan sanaydi. Obro' va nomus haqidagi fikrlari jihatidan birmuncha mahdudroq qarashlarga ega. Biroq hozir gap bu hakda emas, balki asar voqealarining peyzaj uyg'unligida berilishidagi G'afur G'ulom mahorati xususida. Akademik S.Mamajonov «Soyalar» hikoyasidagi peyzaj tasviri haqida shunday deydi: «Soyalar» hikoyasidagi peyzaj qahramonlarning psixologik holatini ochish yoki voqea sodir bo'layotgan joy manzarasini gavdalantirish uchungina xizmat

<sup>26</sup> Айтматов Ч. // Тошкент оқшоми. 1988, 14 феврал

qilmasdan, voqeani rivojlantiruvchi va asarni kompozitsion tomondan uyushtiruvchi muhim vosita vazifasini ham o‘taydi»<sup>27</sup>. Biz ham ustoz adabiyotshunosning bu fikrlariga qo‘shilganimiz holda, hikoyadagi peyzaj bilan bog’liq ramziylik va tuyg’ular parallelizmiga diqqat qaratmoqchimiz. Dastavval, hikoyaning «Soyalar» deb nomlanishiga e’tibor bersak. Soya – quyosh nuri tushmaydigan salqin va ko‘lanka joy. U yorug’likni, nurni to‘sadigan narsalardan tushadigan tasvirdir. Ko‘chma ma’noda soya g’ashlik va ko‘ngil xiralikni, hijolat va havotirni, shuningdek, turli sharpalarni bildiradi. Anglashiladiki, G’afur G’ulom hikoyada hayotning ko‘plar nazaridan panada qolgan jihatlarga e’tibor qaratmoqchi. Homiysiz qolgan oila a’zolariga, panohsiz nozik nihol qizi – Yoqutoy va onasi Enabuvi taqdiriga xayrixohlik bildirmoqchi bo‘ladi.

Muallif tabiatning sirli-sehrli shivirlariga quloq tutadi. Hikoya boshida tasvirlangan yangi o‘tkazilgan olcha ko‘chati asarning so‘ngida ketmon dastadan yo‘g’onroq shaklga kiradi. Ojiz navnihol olcha ko‘chatining mevali daraxtligi, ta’mi nordon ekanligi, qaddi tikligi Yoqutoyga, hayotga qiyoslanadi. Tun nihoyatda uzun, kecha esa g’ayur. Shabada olchaning yaproqlarini yulqilaydi, sarv qomatini silaydi. Bu o‘rinda yaproq ko‘rkamlik belgisiyu, daraxt tanasi Yoqutoyning kelishgan qomatiga ishora ekanligi oydinlashadi. Erta pishar uzum – chillaki rang-tus olib, qizarib pisha boshlagan. Qisqasi, Yoqutoyning yoshligi, ko‘rkamligi, xushvaqtligi, yuzlaridagi qizillik olchani ham, daraxtni ham, daroyi uzumlarni ham uyatda qoldirar darajada go‘zal.

Yozning shabadasi – behadik va sayoq, kapalakday beqaror. Qiznning qaldirg’och qanotiday qayrilma qoshlari – sut daryosining qo‘sha zuluklari. Biroq oy yorug’ligi va oydin kecha atrofdagi tumanli, og’ir sokinlik muqarrar fojiadan darak berayotganday taassurot uyg’otadi. Salqin kecha sokinligi va vazminligi ahli jonzotni uyqu og’ushiga chorlagan. Sarrin shamollar allalab tebratadi, erkalab uxlatadi. Bir qarashda butun atrof «osoyishi barkamol» day tuyuladi. Oydin kecha va oy yorug’iga xos fahsh va haromga chorlovchi, hiyonatga undovchi xususiyatlarga e’tibor berilsa, peyzajning aldamchiligi ham ayon bo‘ladi. Muallif

<sup>27</sup> Мамажонов С. Фафур Фулом прозаси. –Т: Фан, 1966 –Б.114.

go‘yo bu manzaraga ortiqcha mahliyo bo‘lmaslikka chorlayotganday tuyuladi. Tongga yaqin esa, butun qo‘rg’on va chor atrof qorong’u zulmat va vahm qo‘ynida qoladi. Chunki muqarrar fofia allaqachon sodir bo‘lib ulgurgan edi.

Yoqutxon qalbidagi ruhiy bezovta tuyg’ular tabiat manzaralari fonida beriladi. Zim-ziyo zulmat nodonlik va jaholat ramzidir. Yozuvchi Yoqutoyga xos ruhiy to‘lqinlar, oldinda kutayotgan ta’na-dashnomnlarni his etishga mos manzaralar chizadi. «Gunohsiz ma’suma» qiz uchun qo‘sh surnaylarning ovozları mungli tuyulganidek, bo‘z ayg’irlarning arava tortishlarida ham og’rinish borday seziladi. Bir tomonda shodlik, bir tomonda g’am. Tolesiz kechaning yolg’on tongida bariga nuqta qo‘yiladi. Sir oshkor bo‘ladiyu, pokiza uyini, yigitlik g’ururini bulg’amoqni istamagan Nizomjon qizni kechirmaydi.

Hikoya oxirida beshinchi marta gullab meva bergen olcha nordonligi eslanadi. Boshqorong’i Yoqutoy bu gal ataylab onasining bog’iga olchaxo‘rlikka kelgan. «Eski gaplar» uning hayotida misoli soyaday o‘tib ketgan. U mehnatkash ishchi yigitga turmushga chiqib, o‘z baxtini ozod mehnat qo‘ynida topgan qizlardan biriga aylangan. Bu o‘rinda G’.G’ulomning «Go‘zallik nimada?» she’ridayoq boshlangan estetik qarashlariga xos mehnat kishisini ulug’lash g’oyasi bo‘y ko‘rsatib, optimistik yechimni ta’minlaydi.

G’afur G’ulom peyzaj tasvirida ramziylik va parallelizmga rioya qiladi. SHu ma’noda hikoyadagi tun qushi ukki va uning chaqchaygan ko‘zlari, go‘zal parlari haqidagi o‘rinlar e’tiborga molikdir. Ukkining parlari yumshoq va nafis. Qush ularidan ajralishni astoydil istamaydi. Uning ko‘kraklarini yundalab, qayrilma patlarini yulayotgan Enabuvi o‘zi ardoqlab o‘stirgan qushchaga nisbatan johilona munosabatda bo‘ladi. Chunki bu parlarni arzanda kuyovi Nizomjonning boshiga jig’a qilmoq ilinjida. Alami va g’azabli ukki qanchalik tirmashmasin o‘zini mudofaa qilishdan ojiz. Tuyg’ular parallelizmi jaholat, noto‘g’ri hattiharakatlar begunoh va ojiz qalblarda tug’ilgan nafratda ko‘rinadi. Qush taqdiri mantiqan Yoqutoy taqdiriga hamohang.

«Cho‘tir xotining tolei» hikoyasidagi Sharifaxon esa baxil tabiatning notantiligidan aziyat chekadi. Uning yuzi cho‘tir bo‘lsa-da, qalbi oq, oppoq tiniq

tuyg'ularga, erkin orzularga limmo-lim. Qalbidagi hasrat tuyg'ulari xunukligidan kelib chiqqan. Rubobiy kechalarining sokinligi, majnuntollarning shabbodalar bilan muhabbat, sharsharalarning mayin to'lqinlari, baxmal qirlaru bog'-rog'lar Sharifa qalbidagi hasratni kuchaytiradi. U tabiiy go'zallikdagi erkinlikka havas qiladi. Jamiyatda ayol zotiga bo'lgan munosabatdagi notenglikdan aziyat chekadi. Mazkur o'rinda muallif peyzaj tasvirini qahramon tilidan bayon etadi.

«Chehrasi o'zgargan dunyo» uning qarashlarida o'zgarish yasaydi. Hayotda sharaf topmoq, aziz va mukarram bo'lmoq uchun tashqi husnning unchalik ahamiyati yuqligini anglagan SHarifa otasi uyida qayg'uda o'tkazgan kunlarini butkul unitib, mehnat quchog'iga otiladi. Ilg'or brigadir bo'lib yetishadi, ko'ksini hur mehnat nishoni bezaydi. Mazkur hikoyada G'afur G'ulom xotin-qizlarni jamiyat ishlariga faol aralashtirish, ularning mehnatini to'g'ri baholashni asosli suratda tashkil etishning ahamiyati haqidagi fikrlarni ilgari surgan. U mohir peyzaj ustasi ekanligini namoyon eta olgan.

Ko'rindiki, G'afur G'ulom hikoyalarida ruhiy holat va kayfiyatlarini qiyoslash, asar mazmuni va g'oyasini muallif badiiy-estetik niyatiga muvofiqlashtirish, falsafiy qarashlarini ro'yobga chiqarish, inson, tabiat va jamiyat munosabatlarini ifodalashda peyzajdan mohirona foydalangan. Nosir peyzaj tasvirini ko'pincha real hayot vokealarini ifodalashga xizmat qildirgan. Ramziy ishoralar mohiyati, an'anaviy ramziy obrazlar, original topilmalar tabiat va inson munosabatlarini ta'sircha ifodalashga yordam bergan. Betakror peyzaj tasvirini yaratish orqali adib kitobxonda go'zallik tuyg'usini tarbiyalashni ham nazarda tutgan. Bu bilan nosir sinchkov tabiat shaydosi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, badiiy ijodda nasr va nazmning aralash holda qo'llanilishi qadimiylar tarixga ega. Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotda nasr va nazm yonmayon taraqqiy etib kelgan<sup>28</sup>. Xalq eposlarining barchasida nasriy va she'riy tasvirning aralash qo'llanilgannii ko'ramiz<sup>29</sup>. Masalan, Sa'diyning "Guliston",

<sup>28</sup> Қаранг: Ўзбек насли тарихидан. – Т: Фан, 1982, – Б.18

<sup>29</sup> Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Т : Фан, 1981, – Б.13.

Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, ”Majolis un-nafois”, Boburning “Boburnoma”, Abulg’ozining “Shajarai turk” kabi qator asarlarida nasr va nazmnning omuxta bo‘lib kelganligini kuzatish mumkin. Ma’lum bir epik asar tarkibidagi she’riy matnlar yozuvchi uslubi, asar badiiyati bilan bevosita bog’liq. Nasriy bayonda she’riy ifodalar muayyan vazifalarni bajarib, ijodkor mahorati namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi.

G’afur G’ulom nasrida ham she’riy matnlar o‘rinli qo‘llanilgan bo‘lib, u o‘zining hikoya va qissalarining ko‘pchiligida epik va lirik bayon usuliga murojaat etadi. Bu usul yozuvchining yuksak mahorat egasi ekanligini namoyon etish bilan birga asarlarining badiiy yetukligini ta’minlaydi. Adib “*Shum“ bola*” va “*Netay*” qissalari; “*Hadim*”, “*Inoqlik*”, “*Elatiyada bir ov*”, “*Jo ‘rabo ‘za*”, “*Farzandi solih*”, “*Luqmon*”, “*Bo ‘ydoq*”, “*Hasan Kayfiy*” va boshqa qator hikoyalarida turli hajmdagi she’r yoki she’riy parchalarni keltiradi<sup>30</sup>. Uning ijodida nasr va nazmnning birgalikda ishlatilishi shakl va mazmun birligiga bo‘ysungan. U o‘zi ilgari surayotgan g’oyani yorqin ifodalashda, voqealar tasvirini kitobxonga ta’sirli yetkazish, inson ma’naviy olamini gavdalantirishda, qahramon ruhiy kechinmalarini yoritishda she’riy parchalarga murojaat qiladi. Bu hol badiiylikni, ta’sirchanlikni oshirib, asarning didaktik mohiyatini kuchaytiradi.

|G’afur G’ulom hikoyalarida keltirilgan she’rlar hajm va janr jihatidan xilma-xil. Adib hikoyada keltirilgan fikrni asoslash maqsadida mumtoz shoirlar ijodidan ayrim baytlar, xalq og’zaki ijodining lapar, yor-yor, qo‘shiq kabi janrlaridan namunalar tanlaydi. Hikoyalarda adibning mustaqil ijodi mahsuli bo‘lgan she’riy parchalar ham keltiriladiki, ularning ayrimlari alohida shoirlar ijodining, ba’zilari esa folklorda mavjud she’rlarning G’afur G’ulom tomonidan qayta ishlangan variantlaridir.

Umuman, G’afur G’ulom hikoya va qissalarilari fayzli jilolanishida, musiqiy ohangdorlik kasb etishida nasriy ifoda va she’riy satrlar vobastaligi, she’rdan nasrga erkin ko‘chish, mumtoz shoirlarning she’riy baytlariyu, xalq og’zaki ijodi namunalaridan erkin foydalanish, ba’zan ularga ijodiy yondoshish

---

<sup>30</sup> Каранг: Faafur Fulom. Mukammal asarlар тўплами. 6 т. – Т: Фан, 1986

muhim o‘rin tutadi. Nasr va nazm uyg’unlashuvi liro-epik nasriy uslub o‘ziga xosligini yuzaga chiqarib, janr tilining poetik jozibadorligini ta’minlagan. Muallifning hikoyachilikda to‘plagan tajribalari muayyan ma’noda u yaratgan qissalari muvaffaqiyati uchun ham o‘ziga xos zamin vazifasini o‘tagan.

G’afur G’ulomning kichik nasri haqida to‘xtalgan adabiyotshunos S.Mamajonov Oybekning quyidagi so‘zlarini keltiradi: «G’afur o‘z hikoyalarida odamlarning obrazini yaxshi ko‘rsatadi. O‘zining kichik qahramonlari psixologiyasiga kira biladi. Ularning tushunchalari, qarashlari, maqsad va intilishlarini ingichka ko‘radi»<sup>31</sup>. Darhaqiqat, G’afur G’ulom qahramon ruhiyatini ichdan nurlantirishda rang-barang tasvir vositalarini o‘zaro mutanosiblikda qo‘llaganki, bu uning hikoya va qissalarida «kichik» qahramonning «katta» dunyosini tasvirlashda muhim rol o‘ynagan. G’afur G’ulom hayotiylikdan uzoqlashmaydi. U bir oila fojiasi orqali, shaxsiy tragediya misoldida ijtimoiy fojialilikni ko‘rsatib bera oladi. U maishiy holatlar tasviridan ko‘ra qahramon ko‘ngliga diqqat qaratishni muhim deb hisoblaydi. Akasariyat o‘rinlarda yechimiga muallif aralashadi. SHunga qaramasdan, ularda to‘liq determinizm va shafqatsiz realizm ancha barqarorligi aks etgan ruhiy lavhalar mavjud.

G’afur G’ulom qahramonlar ruhiy duyosi, niyati, ichki kechinmalarini ularning o‘z hatti-harakati, nutqi, orzu-intilishlari orqali ko‘rsatadi. Adib yuz bergen muayyan voqeaga personajlar munosabatini ifodalashda ularning hatti-harakatlariga ishora qiladi. Ularning aksariyati sodda va bechora kishilar bo‘lib, o‘zlarining insof, vijdon va diyonat kishisi ekani bilan e’tiborimizni tortadi. Zotan, yozuvchi hamisha syujet va xarakterlar ziddiyatini hayotiy asoslaydi. O‘zbekona hayot tarzidan olingan, milliy koloritni aks ettiradi. Ayrim hollarda, ajvni achchiq kulgiga aylantira oladi. Uning estetik ideali chuqr insonparvarlikka asoslanadi. Nasriy asarlarida G’.G’ulomning insonparvarlikka yo‘g’rilgan estetik ideali, haqiqatga sadoqati, xalqqa hurmati, mehr-shafqati, yetimparvarligi o‘z ifodasini topadi.

<sup>31</sup> Каранг: Мамажонов С. Фафур Фулом прозаси. – Т: Фан, 1966 – Б. 50

## **Ikkinci bob:**

### **ADIB IJODIY QARASHLARI VA BADIY TASVIR MUTANOSIBLIGI**

#### **2.1. Adib qissalarida folklor va mumtoz adabiyot an'analari**

G'.G'ulomning «Tirilgan murda» qissasi qahramoni Andijonning Yorboshi qishlog'ida yashagan, o‘z yalqovligi bilan dong chiqargan Mamajondir. Qissada hayotiy faktlar asos qilib olinsa-da, yozuvchi ko‘proq folklor motivlariga tayanadi. Inson tabiatidagi nuqsonlarni hajv qiluvchi mashhur «*Ming bir kecha*» («*Alif Laylo va Laylo*»)<sup>32</sup> kitobi dagi Abutanbal haqidagi ertakdan unumli foydalangan G’afur G’ulom yaxshi turmush haqidagi inson mehnati va insonparvarlik bilan bog’liq kontseptsiyasini qissada ham ifoda etgan. G’afur G’ulom Sidqiy Xondayliqiyning forscha nusxasidan, Ahror Mahzumning arabchadan qilgan tarjimalari yoxud asl nusxadan foydalanganligini tahmin qilish mumkin. Chunki qissa yozilgan vaqtida M.Sale tomonidan rus tiliga qilingan tarjima (1929-1939) to‘la nashr etilmagan, arabshunos olimlar Solih Mutallibov, Abdufattoh Rasulov, Ubaydulla Karimov va boshqalar tomonidan «Buloq bosmasi» asosidagi arabcha asl nusxadan qilingan tarjima (1959-1963) hali amalga oshirilmagan edi.

Mamajon «Abutanbalni ham bir cho‘qishda qochiradigan» yalqov va dangasa kishining timsolidir. Undagi tanballik ijtimoiy muhit tufayli kelib chiqqan. Chunki farzandini yelu ko‘kka ishonmagan ota o‘z vafotigacha o‘g’lining biror kasbni egallashi, mehnat qilishiga yo‘l ochmaydi. Otasi olamdan o‘tgach esa, g’o‘r Mamajon qattiq qiynalib, real hayot bilan ro‘baro‘ keladi. Mamajonga ota qadrdoni bo‘lgan chollarning nasihatlari ta’sir qilmay, meros hosil, yarim tanob yer, yarim buzilgan qo‘rg’onchani ham qo‘ldan chiqarib, qishloq choyxonasi, mozor dahmasi, Mirjalol quruq xonadonida xoru zorlikda umr kechiradi.

---

<sup>32</sup> Минг бир кеча. Араб эртаклари. 8 томлик. 4 т. –Т: Ўзабадийнашр, 1961 –Б. 88- 111

Bir qarashda uni odamlar tamomila unitib qo‘yishmaganday, qo‘shni oshi chiqarishdan tortib, nasihatlargacha qilishgan, astoydil achinishganday tuyuladi. Biroq achinish bilangina inson hayotda o‘z o‘rnini topib ketishi amrimaholdir. O‘z heshlaridan tortib, samavarchiyu boygacha nimaningdir evaziga unga «saxovat» ko‘rsatishadi. Bu munosabatlarda insoniy samimiyat, bag’rikenglik unchalik yetishmaydi. Mamajon esa taqdir odami. «*Qanday qilay, shunday teskari dunyo ekan, ko‘nikib ketarman*», - deb taqdirdan rozi bo‘lib yuraveradi. Biroq u bir kun kelib «peshonasi ochilib» ketishidan tamomila noumid ham emas. Folklor asarlaridagi tipologik qahramonlarga o‘xshab, omadi yurishib ketishini orzu qiladi. Lekin u madadni sehrli kuchlardan olmay, oddiy insoniy kuchlar va ijtimoiyadolat Mamajonning mudroq vijdoni va passiv psixologiyasini uyg’ota boshlaydi. Undagi ma’naviy mayiblik illatining barham topishi inson va jamiyat muammosiga bog’lab talqin qilinadi.

Bizningcha, Mamajonning mehribon bir umr yo‘ldoshini orzu qilishi uning aynan mehrga tashna qalbi bilan bog’liq. Uning shirin xayollari bilan hayotning bog’lanishiga ham adabiyotshunoslikda talqin qilinganiday qandaydir tuzum sababchi emas. Sattorqul akaning hech qanday ta’magirliksiz ko‘rsatgan saxovati, uni o‘z oilasi a’zosiday qarab mehr-muruvvat ko‘rsatganidan keyin insoniy haroratni sezgan, bundan qoniqish hosil qilgan Mamajon umrida ilk bor orom olib uxlaydi. Kamchilik- nuqsonlarining do‘stona kechirilishi, o‘zligini anglashga imkon berilishi, savodini chiqarishga yo‘naltirilishi Mamajonni «juda ham jo‘n odam emas» ligini anglashga yordam beradi. Hatto tanqidlarda ham qandaydir samimiyat borligini tushuna boshlagan Mamajon hashar yo‘li bilan uylik bo‘lganida, qalbida muhabbat kurtak ochib oila qurbanida atrofida mehrli, saxovatli, samimiy, bag’ri keng insonlar borligini yurak-yurakdan his etadi.

Muhit «murda» ga aylantirgan kishining tirilishiga, qalbi uyg’onib tafakkuri o‘sishiga, o‘z jamoasiyu, davlat manfaatlarini o‘ylaydigan insonga aylanishiga dastavval insonga bo‘lgan samimiy munosabat sababchi bo‘lsa, ikkinchidan iqtisodiy manfaatdorlik qahramonning o‘zgarishida muhim omil vazifasini o‘taydi. Sharoit va munosabatlarning o‘zgarishi, inson xarakterining

shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning «ko'ngli suv ichgan» qizning ismi Qumri deb nomlanishi ham tasodifiy emas. Bu hol nosir beozorlikka, mehrga alohida e'tibor qaratayotganligini ko'rsatadi. Demak, muallif «Tirilgan murda» asarida ham insonparvarlik aqidasida sobitligini tasdiq etgan.

G'afur G'ulomning «Yodgor» qissasida o'zbek xalqining nomus uchun yashashidek milliy belgisi yorqin o'z ifodasini topgan. Yozuvchi bu gal ham gumanizm masalasiga diqqat qaratadi. Ota istagi yo'lida, oila sha'ni uchun qayg'urgan Mehri jaholat oldida ojiz va betadbir bo'lib qoladi. U o'z sevgan yigit va samimiy muhabbatining totli damlaridan nishona bo'lgan Yodgorni qovushmoqlikka bo'lgan katta g'ov deb bilib, noilojlikdan o'ylab topgan yolg'oni tufayli umr bo'yi vijdon azobida qiynaladi. Begonaning qo'liga g'ayritabiyy va latifanoma tashlab ketilgan farzandining noma'lum taqdiri to'g'risida tortgan tashvishlari o'z kuchini ko'rsatib, ruhiy iztiroblar uni kasavand qilib qo'yadi.

Yodgor-ramziy nom, poetik vosita. Uning hayoti va xatti-harakatini ko'rsatish yozuvchining bosh maqsadi ham emas. Asarda insoniy munosabatlar va qahramonlar ma'naviy-ruhiy olamini ko'rsatishda, xarakterlar rivojini ta'minlashda mazkur vosita muhim rol o'ynaydi.

Mehrining onasi qizining sevgan yigit bilan munosabatlarini yoqlasa-da, biroq eriga qarshi bora olmaydi.

Jo'raning onasi ham nomus kishisi bo'lib, o'g'lini «*etti nomusimni yerga bukding*», - deb yozg'irishi shundan. Saodatning onasi esa Jo'rani «*beboshvoq*»qa chiqarar ekan, gulday qizini unga berishni o'z sha'niga nomunosib deb biladi. Kampirning «*tinkasini quritgan*» Jo'raning bolajonligi sal o'tmay begunoh go'dakka nisbatan butun oilada mehr-shafqat uyg'otadi. Kampir Yodgorni o'z farzandlari qatori sevib, ardoqlab tarbiyalaydi, unda o'g'liga o'xhash ko'p jihatlarni kashf qiladi. Shu bolada o'g'lini ko'rganday, hidini dumog'ida his etganday bo'ladi. Saodat ham bolaga alohida mehr bilan qarab, uning Yodgorga bo'lgan teran, samimiy muhabbati, mehribonchiligi o'zbekona bolajonlilikning, insonparvarlikning yorqin nishonalaridir. Ayni paytda bunday insoniy tuyg'ular

yosh qalblar intilishlarini tushunmagan johil otaga nisbatan achinish va g’azab tuyg’usini ham kuchaytiradi.

Yosh go‘dakning sarson bo‘lishida asarning oxirigacha Mehrining xattiharakatlarini, intilishlarini ayblagan kitobxon qissaning so‘ngiga kelib unga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartiradi. Jo‘raga qo‘shilib kitobxonning qalbida ham mehr-shafqat, kechirimlilik tuyg’ulari bo‘y ko‘rsatadi. Qissada Jo‘ra kechinmalari orqali o‘z fikr-o‘ylarini ifoda etgan G’afur G’ulom lirik chekinish qilib, o‘z onasiga bo‘lgan mehr-ardog’ini ifoda etadi: «Ey, meni bag’ring bilan parvarish qilgan ona, ey, menga borlig’ingni bergen ona, ey, mening tarbiyam uchun ko‘z yummasdan hulkarlar ko‘zlaringga cho‘kkan ona. Ey, qora kechalarning zulmati baxtiga cho‘kkan ona, ey, yorug’ kunlarning saodati kelajagingga qo‘ngan ona! Dunyoda onadan ortiq kim mehribon? Haligacha beshik tepasida kuylagan allalaringga baravar she’r yoza olmadim. Haligacha mendan chiqqan kichik isitma uchun tortgan qayg’ularingga teng qayg’u his qila olmadim» (5 t. 64 b.)

Anglashiladiki, adabiyotshunoslikda talqin qilib kelinganiday, Mehri bevafo ona obrazi emas. U nomusni o‘yaydigani, xatolari uchun iztirob chekadigan, o‘z-o‘zini kechirmay ruhan qiynaladigan, yurak «sir»larini eridan ham pinhon tutib, uni ayaydigan, shafqat va marhamatga loyiq ayol obrazidir. Farzandini bag’rida parvarish qila olmagan, unga butun borlig’ini baxshida etib, tunlari bedor allalar ayta olmagan ekan, bu uchun uning baxtiga chang solgan ota tabiatidagi ma’rifatsizlikni, jaholatni aybsitish o‘rinli bo‘lar edi. Hayot haqiqatini milliy jozibasi bilan bera olishda G’afur G’ulomga SHarq adabiyotiga xos rivoyatchilik usullari, voqeа tuzish yo‘llaridan ijodiy foydalanish nihoyatda qo‘l kelgan. Qissaning kompozitsion qurilishi, syujetning rivojlanish usuli, qoliplash san’atidan foydalanish, epistolyar janrga murojaat etish badiiyatda yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

## **2.2. Bosh qahramon qismatining ijtimoiy davr bilan bog'liqlikda badiiy tahlil qilinishi**

G'afur G'ulomning nasrdagi mahorati «*Netay*» (1930), «*Tirilgan murda*» (1934), «*Yodgor*» (1936), «*Shum bola*» (1936-1962) qissalarida ancha yorqin ko‘rinadi:<sup>33</sup>

Jumladan, «*Netay*» qissasida ijtimoiy davr bosh qahramon taqdirining fojiali bo‘lishiga olib keladi. Qissada yozuvchi inson va jamiyat munosabatlari masalasini ancha keng yoritadi. U har qanday notinchlikni qattiq qoralab, «*Otalar o‘g’illarini, onalar qizlarini tanimagan bir musibat kunlar*» da ham chin insoniy fazilatlar saqlanib qolishi va otalik hissining qadron va lazzatli tuyg’ulari zinhor millat tanlamasligiga diqqat qaratadi.

Muhit Netayxонни ko‘chaga haydab soladi. Topgan puli «*kundalik maishatini ming qiyinchilik bilan qoplaydigan*» oddiy rus ishchisi Semyon uni uyiga olib ketadi. Xotini ikkalasi uni boqib, yuvib, tarab, voyaga yetkazadi. Afsuski, ilgari «*xudo bersin*» deb qizchaga qiyo boqmagan Samad va Valixo‘ja boylar Semyonni dinni buzishda, qiz o‘g’irlashda ayplashadi. Undan Netayni tortib olishib, Semyonni zavoddan xaydatishadi. Amal, boylik uchun Netayni amirga tortiq qiladilar. Bu jihatdan qissa Hamzaning ahloqiy-ma’naviy buzilishni fosh etuvchi «*Paranji sirlari*» (1927) tragediyasiga qisman o‘xshab ketadi. G’afur G’ulom ham islovatxona hayoti, fahsh dunyo tasviri orqali insoniylikni oyoqosti qiluvchi razil odamlarni ko‘rsatadi. Bu masala Cho‘lponning «*Kecha va kunduz*» romanida ham o‘ziga xos tarzda badiiy talqinini topgan. Demak, “*Netay*” qissasida G’afur G’ulom jamiyatning katta illatlaridan birini qalamga oladi. Yozuvchi «*yomon xonning zulmi*»ni, mingboshilar, shahar qozilari, gubernatorlarning zo‘ravonligini qahr-g’azab bilan fosh etadi va «*ko‘ngillari yig’lagan, yuzlari kulgan, qalblari haqoratlardan qonagan*» ayollarni himoya qiladi.

---

<sup>33</sup> Каранг: Faafur Fулом. Муқаммал асарлар тўплами. 5 т. – Т : Фан, 1986

Ayrim tadqiqotchilar bisyor qayd qilishganidek, qissada rus ishchisi obrazi yaratilganligi muhim emas. Muhimi, Semyon va uning xotinidagi qaynoq mehr-shafqat tuyg'ulari, bolajonlilik xislatlarining nosir tomonidan alohida mehr-muhabbat bilan chizilganligidadir. Zero, G'afur G'ulom ham Zebixon, Po'taxonlarning baxtsiz turmushidan, ko'ngillaridagi tuyg'ulardan, ularni qafaslarga qamashga olib kelgan vaziyatdan, istak-tilaklarning bo'g'ilayotganligidan, haqoratlangan qalblaridan otilib chiqayotgan yig'ilari tosh ko'ngillarga yetib bormaganidan so'zlamoqchi ekanligini lirik chekinishlarda goh oshkor, goh majoziy tarzda so'zlaydi.

Dukchi eshon boshchiligidagi g'azot qanchalik ijobiy ahamiyat kasb etmasin, G'afur G'ulom nazarida mamlakatdagi betinchlikdan oddiy xalq jabr ko'radi.

Sargardonlik tufayli Qo'qon ko'chalarida tentirab yurgan yetim qiz Netay bir burda non ilinjida odamlar qo'liga qaraydi. Biroq «Xudo bersin», - degan kalomdan boshqasini eshitmaydi. Hatto unga ayrimlar vahshiy niyat bilan nazar soladilar. Qissada kishilar haminqadar kun kechirayotgan, xalqning ahvoli nihoyatda nochor bo'lган davr manzaralari ana shu tariqa jonlantiriladi. Haqli savol tug'iladi. Tasvir mantig'ining o'zi G'afur G'ulomning ijodiy kontseptsiyasiga xos qarama-qarshi qo'yib qiyoslash uslubiga muvofiq tarzda Semyon obrazini talab qilmaydimi?

Darhaqiqat shunday. Dukchi eshon g'azotining mohiyatini yaxshi anglagan kishi adibning Rossiyaga xos ikkinchi manzarani, ya'ni oddiy rus kishilarini tasvirlash orqali, ulardagi mahalliy millat vakillariga bo'lган munosabatni ko'rsatish bilan nosir masalani ilmiy jihatdan ham to'g'ri asoslashga intilganligini anglaydi. Chunki adib qissada qo'yilgan masalani nafaqat badiiy, balki tadqiqt yo'li bilan ham yechishga harakat qilgan. Asarda tirikchiligi zo'rg'a o'tayotgan, farzandlaridan bevaqt ajralgan qalbi o'ksik Semyon ko'prik tagida beozor uxbab yotgan qizaloqqa achinish barobarida farzandlariga vaqtida bera olmagan, qalbining allaqaerida saqlanayotgan, sekin-asta unitila boshlagan tuyg'ularini

tiriltirib yuboradi. Bu otaning farzandga bo‘lgan mehri, shafqati, muhabbatি, ardog’i edi.

Taassufki, bu go‘zal tuyg’ularni Samad, Saidrahimboy, Valixo‘ja boylar to‘g’ri tushunmaydilar. Natijada Netayning taqdirini tashqi muhit tomonidan yaratilgan vaziyat hal qilib, johil, nafs iskanjasidagi kishilar masalani zo‘rlik va zulm bilan hal qiladilar. Mansabparastlik, ta’magirlik, shafqatsizlik, nafs iskanjasidagi evrilishlar qizning taqdirini fojiali yakunlashga olib keladi va u fohishaxonaga tashlanadi. Garchand, qissada xarakterlar ruhiyati yetarlicha ochilmagan, voqealar mantig’i ancha kuchli, tarixiy faktlar bisyor, kompozitsion tarqoqlik mavjud bo‘lsa-da, asarning yechimi to‘g’ri hal qilingan.

G’afur G’ulom XX asr boshlaridagi Turkiston hayotini ezgu va razil kimsalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, taqdir o‘yinlari, ijtimoiy jarayonlar zamirida Netayning ayanchli taqdiriga sabab bo‘lgan shart-sharoit larni, jamiyatni, turfa xil kishilar xarakterini gavdalantirib bera olgan, inson farzandining haq-huquqsizligi qattiq qoralagan.

## ADIB QISSALARIDA YUMORNING KO‘LAMI

### 3.1. O‘spirin obrazining shafqat va hamdardlik negizida tasvirlanishi

Adib «Shum bola» qissasida ham birinchi jahon urushi kulfatini, chorizmning shafqatsiz zulmini ko‘rsatadi. Asar boshida o‘sha paytda Toshkentda sanog’iga yetolmaydigan jinnilar paydo bo‘lgani ta’kidlanadi. O‘shaadolatsiz, zo‘ravon tuzum kosiblar, hunarmandlar, savdogarlarni sindirib, jinni qilib qo‘yadi. G’afur G’ulom, masalan, «*Juft kaptarga hukumatdan tekkan edi. Nikolay bormi, Kaufmani bormi, Mochalov bormi, o‘g’ri degan mirshab bormi-hamasini bir qozon qilib, martabasining past-balandiga qaramay, sukaverar edi*», deb yozadi. Asar boshidagi bunday tasvir keyin chiziladigan turfa hayotning elchisi, debochasi edi. Keyin Shum bola sarguzashti bahonasida o‘sha fojiaviy hayotdagi inson holatini, uning axloqiy-ma’naviy dunyosini, odamiyligi va mehr-shafqatini, hayvoniy qiyofasini haqqoniy ko‘rsatadi.

«Shum bola» avtobiografik asar emas. Qissa real, tarixiy aniq faktlar, voqealar, tarixiy shaxslarga nisbatan badiiy to‘qima, fantaziyaning salmog’i ortiq. Shuning uchun qissa L. Tolstoyning «Bolalik», «O‘smirlik», M. Gor’kiyning «Bolalik», «Odamlar orasida» asarlariga o‘xshamaydi. Aslida, badiiy-avtobiografik asarda voqeaning yo‘nalishi, syujet chizig’i, konflikt, personajlar soni va asar syujetida o‘ynaydigan roli shu asarga asos bo‘lgan shaxsning hayot yo‘li qanday bo‘lsa, shunday, chiziladi. Muallif hayot yo‘li qancha murakkab, boy va qizg’in bo‘lsa, avtobiografik asar ham shuncha qiziqarli bo‘ladi.

«Shum bola» qissasidagi qahramonlarga xos «erkin», «tashqi» avtobiografik belgilar ularni o‘z orqasidan ergashtirib ketmaydi: voqealari mantig’i xarakterlar mantig’iga ko‘ra tug’iladi va rivojlanadi. Qaxramonlarning harakatlari, asar syujeti, konflikti hayot haqiqatiga mos. Qissa badiiy-avtobiografik asarlarga xos fazilatlar ham talaygina. Bosh qahramon va uning o‘rtoqlari tarixiy shaxslar, ular tug’ilgan makon-ko‘cha, mahalla aniq. Hatto Shum bolaga G’afur G’ulom xarakterining ko‘pgina xislatlari singib ketgan. Asarda hayotning rang-barang,

murakkab tomonlari, tarix harakati, xalq taqdiri ko'rsatilgan. Biroq bular qahramonning dunyoqarashi, tushunchasi, kechinmasi nuqtai nazaridan yoritiladi. «Shum bola» qissasida ham voqelik shu shum bolalar taqdiri, nuqtai nazari orqali tasvirlanadi. Shum bolalar hayot hodisalarini o‘z yoshi, ongi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasidan kelib chiqib tushunadi, baholaydi. Kitobxon esa, hayotning ular qalb ko‘zgusidagi in’ikosiga qarab turib, o‘zicha xulosalar chiqaradi, yozuvchi niyatini tuyadi...

Qissa syujetiga xos sarguzashtlilik xususiyati, qahramonlarning mahallama-mahalla, qishloqma-qishloq kezib yurishlari o‘z-o‘zidan asarga ko‘plab epizodik qahramonlar kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Avtobiografik asarlarda bu xususiyat asosiy va tabiiy holdir. Masalan: Sulton o‘g’ri, o‘lik yuvish voqeasida qatnashgan domulla, shum bola tomonidan so‘yib qo‘yilgan eshakning egasi, Shum bola xizmatida bo‘lgan eshon va uning xotinlari, Sariboy oilasi kabi personajlar yo‘l-yulakay paydo bo‘lib, voqealar tizmasidan tushib qoladi. Bu xislati bilan «Shum bola» badiiy-avtobiografik asarlarga yaqin turadi. Biroq avtobiografik asarlardagi yo‘l-yulakay asarga kiruvchi epizodlar va obrazlar xarakteri bir-biridan farq qiladi. «Shum bola»ga yangi-yangi voqealar va qahramonlarning kirib kelishi, bir tomondan, xarakterlar mantig’iga bog’liq. Xarakter mantig’i esa, ketma-ket kulgili vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

«Shum bola» – yumoristik asar. Yozuvchi asar boshidayoq yumoristik ruh yaratadi. Tuyg’u va kechinmalar tahliliga berilmaydi. U butun diqqatini xarakterlar mantig’i bilan tug’ilgan komik vaziyatni, komik voqea va detallarni tasvirlashga qaratadi. Bora-bora humor satiraga o‘tadi. Asarda satirik ruh kuchli. Bu bu yozuvchi shartlilik printsipiga keng murojaat etishining natijasidir. Bizningcha, anashu badiiy usul mantiqan asoslangan va u hayot haqiqatini ochish, xarakter yaratish uchun xizmat qilgan.

«*Shum bola*» qissasida G’afur G’ulom sodda, beg’ubor, ma’sum va musaffo tabiiy xislatlarga ega bo‘lgan o‘spirin obrazini yaratadi. Asar o‘tkir hajv va dono humor bilan ziynatlangan, yetim bolaning sarguzashtlari asosiga

qurilgan. Asarda ma'lum darajada avtobiografik elementlar uchrasa-da, unda o'zbek bolalarining boshidan o'tkazgan sarguzashtlari hikoya qilinadi.

Mamlakatdagi notinchlik tufayli shaharda ishsizlik muammosi kelib chiqqan. Qissadagi Omon, It Obid, Bit Obid, Turobbox, Yo'ldosh, Husni, Solih, Abdulla, Po'latxo'ja, Miraziz singari bolalarning taqdiri bir- biriga o'xshash. Omon onasidan, Yo'ldosh esa ota-onasidan, Shum bola otasidan ajralgan. Odamlarning kasb-korlariga diqqat qilinsa, pichoqchi, eski-tuski yig'uvchi, tikuvchi, ko'nchi, hofiz, g'o'zafurush, kerosinfurush, mayda savdogarlik va hokazo. Shum bola tanigan mahalladoshlari, qo'ni-qo'shnilar bilan kitobxon shu tarzda tanishadi. E'tibor berilsa Yo'ldosh «bari mog'orlab ketgan surp yaktak» kiyib olgan va boshqalarning ham ahvoli haminqadar. Shum“ bolalarning mayda-chuyda saqlanadigan uyi zax bosgan. Yog'lari kichkinagina ho'qchada saqlanadi. Hatto tovuqqa moyak o'rniga ham piyoz qo'yilgan. Shunga qaramasdan odamlarda mehr-shafqat, iymon, e'tiqod kabi insoniy tuyg'ular so'nmagan.

Shum bolaning onasi obrazini olaylik. U bolasining boshiga xamir yoyib o'tirgan o'qlovi bilan «astagina» uradi. Chunki uning uchun o'choq boshi «Fotimai Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yer» bo'lib, bu joyni iflos qilish gunoh. Ona bolaginamning boshini yorib qo'ydimmi?-degan andishada esxonasi chiqib ketsa, Shum bola qo'rqish va uyatdan ko'chaga qochadi, hatto uyiga qaytib kelishga beti chidamaydi. Chunki yetimcha singillarining nasibasini ko'chaga tashmalash uyat ekanligini u yaxshi biladi. Biroq o'rtoqlari oldidagi hamiyatli bo'lishga intilish tuyg'usi uni shu yo'lga boshlagandi-da. Bechora onaizor butun qissa davomida Shum bolani sog'inch va intizorlik bilan kutadi. Do'sti Turobboxning tilidan bayon qilinishicha, u hatto o'g'lim o'lib qolgan bo'lsa-ya, deb aza ochmoqchiyam bo'ladi.

Shum bolaning uyg'a qaytmasligi bizningcha, uning mehri qattiq bolaligidan emas. Bu hol bir qarashda bu bolaning sayohatga o'chligidan, yangi-yangi sarguzashtlarga moyilligidan kelib chiqqanday tuyuladi. Biroq shu bilangina mazkur holatni izohlab bo'lmaydi. Ammasi va pochchasining erkalashlari, bolajonligi Shum bola qalbidagina emas, kitobxonda ham nihoyatda

iliq taassurotlar uyg'otadi. Bu mehribonchilik bir jihatdan ularning o'ksik qalbi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan yetimparvarlik, qarindoshjonlilik bilan izohlanadi. Axir ularning nozik qalblari turfa gullargayu hayvonu parrandalargacha tizginsiz bir mehr mujassamlashgan emasmi?

«Shum bola» qissasida mazkur tipdagi qahramonlar juda ko‘p. Shum bola va Omondan to‘rsiz gardish va bola beshikni olgan qozoq kampir hikoyachi «men» aytganiday «ko‘r xaridor» emas. U o‘z bolalarini bozorlik bilan siylamoqchi, qolaversa, shu yetimcha bolalarni-da xushnud etib, keraksiz matoh-gardishni ham sotib oladi. Har bir so‘zida «qarog’im», «qaroqlarim», -deb og’zidan bol tomadigan bu mehribon va halol kampir shu bolalarni rozi qilib mollarini olishga ko‘nadi.

Qozoq kampirning iqtisodiy ahvoli ham maqtovga loyiq emas. U o‘zi yetishtirgan ul-bul narsalar: tovuq, tuxum, so‘k, qurut bilan oilaga zarur anjomlarni ayriboshlashining o‘ziyoq bechoraholligini ko‘rsatib turibdi. Chunki savdo qilishga naqd puli yo‘q. Demak, o‘lkadagi barcha millat vakillari ham moddiy muhtojlikda qo‘l uchida umrguzaronlik qilishmoqda. SHunga qaramasdan, insoniy harorat, bolajonlilik, halollik, poklik, insof tuyg’ulari bilan ularning qalbi limmo-lim to‘la ekanligi juda muhimdir.

Qirg’iz kampir Yaxshiqiz xarakterida anchagina salbiy jihatlar bo‘rtib ko‘rinadi. Bechora kampirni turmush tashvishlari birmuncha hisob-kitoblik qilib qo‘yan bo‘lib, u o‘z tirikchiligi muammolari bilan hayot kechiradi. Biroq kampir insoniy xislatlardan, e’tiqoddan begona ham emas. Kampir yetimchalarga xayrli nazar bilan qaraydi, ularni andak ayab, yarim tanga evaziga tunash joyi ikkita chap-chap non bilan siylab, o‘zлari olib kelgan tuxumlarni qovurib berishga rozi bo‘ladi. «*Allohning osmoni ham, yeri ham keng*» ekanligi haqidagi kampirning sodda falsafasi zamirida uning e’tiqodiga xos jihatlar mujassamlashgan. Atrofini qurshagan muhitga ko‘nikib ketgan kampirda ham hali so‘nmagan insoniy tuyg’ularni ko‘rish uchun davr va odamlar hayotini teran bilish, maishiy holatlarning sabablarini tahlil eta olish, har bir qahramonning ruhiy olamidagi

ko‘z ilg’amas nozik jihatlarni mahorat bilan aks ettirish lozim edi. G’afur G’ulom mazkur mashaqqatli yumushni yuksak darajada uddalay oldi.

Shum bola Sariboynikiga ilk borgan kuni olma yashiklaridan karovat, yog’och qirindisidan yostiq qilib yotishiga qaramasdan, mazza qilib uxlaydi. Chunki u hali ziqna boy bilan yuzlashmagan edi. O‘ziga o‘xshagan xizmatkorlarning mehr-shafqatidan, samimiyl maslahatlaridan qoniqish hosil qilgan edi. Bir cho‘mich go‘jayu ikki burda jaydari non bir yetimning ko‘nglini ovlashga, qornini to‘ydirishga yetar ekan. Odamning odamga mehr-oqibat ko‘rsatishi nahotki shunchalar mushkul bo‘lsa?-deya ta’kidlayotganday tuyuladi G’afur G’ulom. Bunday o‘rinlar Shum bolani darbadarlik va makonsizlik balosiga girifdor etgan muhit ustidan aybnomaday tuyuladi. Aslida ham shunday.

Aksariyat taddiqotchilar qissadagi Omon obraziga birmuncha yotsirab qarashadi. Shum bolaning ayrim safarlarida yo‘ldosh bo‘lgan hamqishlog’i Omon taqdirini bosh qahramon qismatidan ajratish mumkinmi? Bunday yo‘l tutishda nechog’lik asos bor. M.Amilova uning qiyofasida do‘stga hiyonatni, boylikka o‘chlikni ko‘radi<sup>34</sup> Omonni Shum bolaga qarama-qarshi tarzda yaratilgan obraz deb hisoblaydi. H.Yoqubov esa uni ochiqdan-ochiq «so‘tak», deb ta’riflaydi.<sup>35</sup>

---

<sup>34</sup> Қаранг: Амилова М. Ўзбек совет адабиётида фольклор анъаналари. –Т: Фан, 1990 –Б. 65-66.

<sup>35</sup> Ёкубов Х. Faafur Fulom (хаёти ва ижоди). –Т: Бадий адабиёт, 1959 – Б. 68

### **3.2. Xarakterlar qismatining o‘zaro tutashligi**

“Shum bola” qissasidagi Shum bolava Omon ayricha xarakterdagi bolalar. Omonga xos xislatlarda hushchaqchaqlik emas, balki birmuncha jiddiylik kuzatiladi. Tursunboy akaning yolg’iz o‘g’li bo‘lgan bu bola onasidan erta ajrab, yetimlik azoblarini totib ko‘rgan, hayot ancha ulg’aytirib qo‘ygan o‘spirindir. Buning ustiga u Shum boladan biri-ikkiyosh kattaroq bo‘lib, Omon ko‘rgan bilganning ko‘zicha quruq qo‘l bilan uyga borishdan or qiladi. U xayolparast kishilarday mol-dunyosi ko‘payib ketishini orzu qiladi, o‘z niyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida chor-nochorlikdan ne bir ko‘chalarga kirib chiqmaydi. Poezdda yurgan kishilarga ayricha havas bilan qaraydi, uzoq-uzoqlarga ketib qolgisi keladi. U dunyo qidirib, baxt izlab yurganligi jihatidan Shum bolava uning o‘rtoqlari taqdiriga taqdiri tutashligiga, mehr-muruvvatga tashna ekanligiga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Shum bolani ko‘rganida quchog’iga otilib. Yalab-yulqashi, hol-ahvol so‘rashi shundan Shum bola bilan Ko‘kterak bozoriga qo‘ylarni haydab ketayotgan Omon avj pardalarda mungli kuylayotgan o‘rtog’iga qarata: «Ayt, uka! Ancha vaqtadan buyon shunaqa bir rohat, tanish ovoz eshitganim yo‘q», -deydi. Xuddi ana shu holatda Omonning ruhiy to‘lqinlari yorqinroq ifodasini topgan. Bu o‘spirinning dil torlaridan silqiyotgan dardli izardorlar, sog’inch tuyg’ulari Shum bolaning qo‘shig’i ohanglariga qo‘shilib kitobxon qalbiga ko‘chsa, bu ikki taqdirni ruhan birlashtirib yuborsa ajab emas. Zero, sodir bo‘layotgan voqealar qahramonlar taqdirida beiz ketmaydi. Vaqt o‘tib yoshi ulg’aygan sari Shum bolaham tobora ko‘proq oila tashvishi, beva onasi va singillarini o‘ylaydigan, ularga yordam berish burchi bilan ruhan qiyonaladigan bo‘lib qoladi: «*Onam sho ‘rlikning beva kambag’al ro ‘zg’origa jodiday jag’ bilan borishim o‘zimga ham o‘ng’aysiz, ularning ham menga ko‘zlar uchib turagan bo‘lsa kerak... Beva onamni, yetimcha singillarimni ko‘p o‘ylayman, ichim achishadi. Nega men bunday noshud bola bo‘ldim, kimga bo‘lsa ham shogirdmi, yugurdakmi bo‘lish kerak, biror nima topib onamga qarashib yuborishim kerak-*

*ku, deyman, O'kinaman, o'z-o'zimni koyiyman, ba'zan-ba'zan yig'lab qo'yaman.  
Ammo shu holda uyga qaytish qiyin»* (5 t. 181-182 b.)

Shum bolaning falsafasi, fikr-mulohazalari ilk bor uydan chiqib ketgan paytidagidan ancha o'sganligi, hayot uni ulg'aytirib qo'yanligi ma'lum bo'ladi. Shunga bog'liq tarzda qissaning uslubidagi epik tasvir yetakchiligi lirizm bilan almashina boradi. Bu esa nosirga xalq turmushining turfa jihatlarini kengroq yoritish, xarakterlar ruhiyatini teranroq ko'rsatish imkonini beradi.

Asardagi qahramonlarning to'qroq turmushga intilishini tabiiy insoniy xislat deb baholash lozim. Shunga ko'ra Omonni «*boylik orttirish tashvishidagi nazari past, ma'naviy qashshoq obraz*» deb o'ylash ancha biryoqlamalik bo'lar edi. Uning xarakterida ayrim hollarda kuzatilgan Shum“ boladan o'ch olishga intilish esa, bolalarcha kek saqlashdan kelib chiqqan o'jarlikdan boshqa narsa emasdi. Bolalarning birida oriyat ustunlik qilgan paytda, ikkinchisi esa sal murosaga kelishni istamaydi. Mana shunga o'xhash o'spirinlarcha o'jarlikning o'zi xarakterlarning ishonchli chiqishini ta'minlagan omildir.

«Shum bola» qissasining gumanistik pafosini yorqinroq ko'rish uchun taqdirlari bir-biriga tutash bo'lgan yetim bolalar o'rtasidan ziddiyat qidirishda hech qanday mantiq ko'rinxmaydi. Asarda tasvirlangan ijtimoiy muammolarni anglamoq uchun jahon muxorabasini boshlab, xalqni nochor ahvolda qoldirgan va bundan manfaatdor kishilarga xos g'ayriinsoniy jihatlardan tamomila farqlanuvchi moddiy muhtojlikdan, kundalik vahimalardan asabiylashgan oddiy, samimiy insonlarga xos jihatlarning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishidan izlash foydaliroq bo'lardi. Murakkab vaziyatlarda ham sof insoniy qiyofalarini yo'qotmagan kishilarning ruhiy to'lqinlarini tushunmoq G'afur G'ulom ko'zlagan maqsadlarni anglashga yordam beradi. Ma'noli, mazmunli hayotni qo'msagan, taqdirini endilikda qorin to'qligiyu xotirjam kun o'tkazishgagina bog'lab tasavvur qila olmaydigan Shum bolaqalbining tongday tiniqligi, o'zini qushday yengil his etayotganligi, ko'kragini to'ldirib nafas olishi kabi ramziylik bilan qissaning yakunlanishi zinhor bejiz emas. Bu G'afur G'ulomga xos inson taqdirining qo'l bilan yaratilishi haqidagi ijodiy-estetik ideallarga borib taqaladi.

“Shum bola” qissaning aksariyat qahramonlari ojiz bir banda sifatida taqdir sinovlari oldida betadbir qoladilar. Bunday o‘rinlarda inson ojizligiyu iymon qudrati namoyon bo‘lgandek tuyuladi. Alovida olingan kishilar va olomon ruhiyati tasvirlangan o‘rinlarda bu hol yaqqolroq ifodalangan. Toshkentlik dong‘i chiqqan yallachilardan biri Oysha taqdiri uning shogirdlari bo‘lgan Sarvi, Fotima, Risolat yallachilarnikiga tutash. Hayot zarbasi bilan bir paytlar aldangan, nihoyat nomigagina bo‘lsa-da, Rahmat hojiga xotinlik qilib, uning turfa nayranglariga sabr bilan chidab kelayotgan, zarur bo‘lsa o‘z oilasini boqish, tirikchiligini o‘tkazish uchun «yuzini yerga surib tilanganday bo‘lib, besh o‘n so‘m orttirib» keladigan Oysha yallachi juda ham hayotidan rozi emas. Endilikda uni pul ham, eri ham qiziqtirmaydi. Bechora ayol o‘z qadrining oyoq osti qilinishi, nafsoniyatining kansitilishi, xo‘rlanishiga navbat kelganida bardoshi tugaydi.

Yalla aytib, muqom tushib, davradagilarga turli qiliqlar ko‘rsatib, dang‘illama mehmonxonalarda «bitta qiyg‘ir bo‘yin qilish bilan osmondag‘i qushni ovlaydigan» yallachini nogoh tanimay qolasiz. O‘ziga o‘xshagan taqdirlar sonini yana bittaga ko‘payishini istamagan Oysha yallachi qalbida so‘nib borayotgan insoniy tuyg‘ular qayta tiriladi. Musulmon bir kosibning sha’nini o‘ylaganida, hamiyatli, himoyatli, besh vaqt namozni kanda qilmaydigan kishining farzandi bo‘lgan Latifaxonga achinganida, uni harom yo‘ldan saqlab qolish uchun kuyinganida bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Qizni muqarrar falokatdan ogoh etib, «oyimposhsha», «poshshaxon», «oppoqqinam», -deb erkalab hushyorlikka chorlaydi. Aqli kirib qolgan Latifaxonning uni «opa», - deb atashi, gunohlari uchun uzrxohlik qilishida yuksak insoniy samimiyat mujassam. O‘pishib, quchoqlashib, ko‘z yoshi qilib xayrlashayotgan bu ikki ayol kundoshlardan ko‘ra opa-singillarga yaqin mehr-muruvvat bir-birlaridan ajrashadi. Oyshaning jasorati Latifaxonni qochirib yuborishida ko‘rinsa, Latifaxonning haqiqatan ham mo‘min kishining farzandi ekanligi: «*Nimaiki qilgan bo‘lsam, bilib o‘tgan, bilmay o‘tgan gunohlarim uchun kechiring*», - deya qalbini ochishida ko‘rinadi. Bu beg’araz samimiyatga qaytarilayotgan

minnatdorchilikkinan emas, Allohdan umidvor muslimaning istig’fori, tavbasi hamdir.

Latifaxon o‘z taqdirining yaxshilikka yuz burishini Yaratganning marhamatidan deb biluvchi e’tiqod kishisi. SHuning uchun bo‘lsa kerak, taqdir uni ikkinchi bor sinayotganida ham bu bevaga nisbatan qalbimizda achinish, hamdardlik, ruhiy yaqinlik tuyg’usi zinhor so‘nmaydi. Aksincha, adashgan Oysha yallachiga nisbatan ham iliq mehr paydo bo‘ladi. Rahmat hojiga chiqarilgan xalq ajridan qanoat hosil qilamiz.

G’afur G’ulomning insoniylikni ulug’lovchi asarlaridan yana biri «Yodgor» qissasidir. Yozuvchi, asarda o‘sha paytdayoq muhabbat erki masalasini ko‘tarib chiqib, qoloq psixologiya, jaholat inson boshiga og’ir kulfatlar olib kelishi mumkinligini ko‘rsatib beradi. Xazil-mutoyiba va ertaknamo yusinda yozilgan bu asar zamirida g’amgin hikoya, fojiali taqdir bor. G’afur G’ulom jahon adabiyotida hozirgi vaqlarda keng qo‘llanilayotgan tasvir usulini o‘sha vaqtdayoq ishga solgan. Ya’ni biror sodir bo‘lgan voqeaga odamlarning munosabatini ko‘rsatish, ularni sinov chig’irig’idan o‘tkazish orqali aslida kimligini, ruhiy olamini, ma’naviyatini ohib berish usulini qo‘llagan.

«Yodgor» qissasida Mehri otasining johilligi va umuman o‘sha davrdagi hukmron odat bo‘yicha sevgani bilan qovusha olmaydi – nikohsiz tug’ilgan bola xalaqit beradi. Shu bois, yo sharmanda bo‘lishlari yoki boladan qutulishlari kerak. Mehri go‘dakdan qutulish yo‘lini qidiradi va Jo‘raga uni hiyla bilan topshirib, og’ir vaziyatdan chiqadi. Jo‘ra go‘dakni uyiga olib keladi.

Ammasining qizi Saodatni Jo‘raga olib berishga onalar kelishib qo‘yishgan edi. «Taqdirni buzib bo‘lmaydi», shunday bo‘lishi kerak edi, ular nazarida. Biroq, yosh go‘dakni (keyin Yodgor deb ism berishdi unga) ko‘tarib kirganda, onalarining orzulari chippakka chiqqanday bo‘ladi: ularni na go‘dakning taqdiri, na o‘z farzandlarining kelajagi qiziqtiradi. Har ikkisi ham Yodgorni Jo‘raning o‘g’li deb, fig’onlari ko‘kka chiqadi: onasi «etti nomusimni yerga bukding, juvonmarg», deb qarg’aydi. Ammasi «*beboshvoqqa beradigan qizim yo‘q. Mening qizim xali ochilmagan gul*», deb to‘nini teskari kiyib oladi.

Ikki onani jig’ibiyron qilib yondirgan ikkinchi narsa – Jo‘raning xaqiqatni yashirib, go‘dakni «*Mening bolam*», «*Onasi shu bolani tug’di-yu, o’ldi-da*», deyishi edi. Jo‘raning bunday yo‘l tutishi bilan asar konflikti yanada taranglashadi. Biroq yozuvchining bu usuli yuzaki qaraganda sun’iydek tuyuladi. Chunki haqiqatni aytsa, hech kim Jo‘rani ayblamas, aksincha, uning odamgarchiliga qoyil qolishlari mumkin edi.

Yozuvchi atayin bu yo‘ldan qochib, Jo‘raning «yolg’on» so‘zlashini asoslaydi. Zero, Jo‘ra haqiqatni ularga ayta olmasdi. Chunki Jo‘ra Mehrining boshidan o‘tgan asil voqeani – haqiqatni hali mutlaqo bilmasdi. Buni Mehri necha yillardan keyin harbiy vrach bo‘lib yetishgan va tasodifan uchrashib qolgan Jo‘raga aytib beradi. Mehrining o‘z eri va hayoti to‘g’risidagi qayg’uli hikoyasi uning yuragini ezib yuboradi. Shu tufayli mehrining dostonini uydagilarga aytib, sirini fosh etib, uni yana qo‘srimcha g’amga botirishni xohlamaydi. Uning ustiga, ota-onasiz qolgan go‘dakning ahvoli uni masalaga chuqurroq yondashishga undaydi: «*Endi qanday bo‘lsa ham bolani qutqarib qolish kerak. Axir bu go‘dakda nima ayb?*», deya Jo‘ra qatlyiy qarorga keladi. Qutqarib qolishning birdan-bir yo‘li go‘dakni o‘z farzandim deb aytish edi. Jo‘raning bu «hiylasi» kutilgan natijani beradi: onasi uni o‘z nevarasidek parvarish qiladi, Saodat ham Jo‘raga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmaydi, onasi (Jo‘raning ammasi) ham yana Jo‘raga mehr kuyadi. Qizini berishga rozi bo‘ladi.

Jo‘ra armiyada ekan, xat orqali Saodat bilan o‘rtalaridagi sevgi g’unchasi gullaydi va bir- birlariga yetishadilar. Keyin Mehri Jo‘raga o‘zining haqiqiy hayot yo‘lini-go‘dakni unga tashlab ketish tarixini so‘zlab beradi. Ko‘rinadiki, povestda go‘dak voqeasi asardagi barcha qahramonlarning kimligini namoyon etish vositasiga aylanadi va yozuvchi o‘zbek xalqi tabiat-xarakteriga xos tug’ma bolajonlilikni, mehr-oqibatni qiziqarli ko‘rsatib beradi.

Demak, G’afur G’ulom qissalari Sharq va G’arb nasrchiligi sintezidan tug’ilgan badiiy tafakkurning yorqin namunalaridir.

**XULOSA.**



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови // Халқ сўзи, – 2016 йил 8 декабр
2. Мирзиёев Ш.М: Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби. // Халқ сўзи, – 2017 йил 16 июн
3. Абдуллаев X. Faфур Fулом ва Xоразм. – Т: 2003
4. Айтматов Ч. // Тошкент оқшоми. 1988, 14 феврал
5. Амилова М. Ўзбек совет адабиётида фольклор анъаналари. – Т: Фан, 1990
6. Ёқубов X. Faфур Fулом (ҳаёти ва ижоди). – Т: Бадиий адабиёт, 1959
7. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т: Фан, 1983
8. Каримов Н. Faфур Fулом. – Т: Faфур Fулом номидаги НМИУ, 2003.
9. Каримов Б. Қодирий қадри. –Т: 2003
10. Мамажонов С. Шоир ва замонавийлик. – Т: Фан, 1963
11. Мамажонов С. Faфур Fулом прозаси. – Т: Фан, 1966
12. Мамажонов С. Услуб жилолари. – Т: Адабиёт ва санъат, 1972
13. Матёқубова Т. Faфур Fулом бадиияти. – Т: Фан ва технология, 2006
14. Минг бир кечаси. Араб эртаклари. 8 томлик. 4 т. –Т: Ўззадабийнашр, 1961
15. Назаров Б. Faфур Fулом олами. – Т: Фан, 2004.
16. Норматов У. Қодирий боғи. – Т : Ёзувчи, 1995 – Б. 173
17. Отаев Р. Тонг юлдузи шуълалари. // Шарқ юлдузи, 1989. № 1
18. Халқ сўзи. // – 2003 йил, 13 май.
19. Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2003
20. Ўзбек насли тарихидан. – Т: Фан, 1982
21. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Т : Фан, 1981
22. Қуронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Т : Шарқ, 2004

23. Қуранов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т: Академнашр , 2010
24. Ғафур Ғулом. Муқаммал асарлар тўплами. 5 т. – Т : Фан, 1986
25. Ғафур Ғулом. Муқаммал асарлар тўплами. 6 т. – Т: Фан, 1986
26. Ғафур Ғулом. Муқаммал асарлар тўплами. 12 томлик. 12 том. – Т : Фан, 1989
27. Ғафур Ғулом замондошлари хотирасида. – Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи, 2003
28. Ғафур Ғулом ва давр. – Т: Университет, 2003
29. Ғафур Ғулом ва Самарқанд. – Самарқанд, Университет, 2003
30. Ғафур Ғулом – ўзбек адабиётининг байроқдори. – Самарқанд, Университет, 2003
31. Ғафур Ғулом – шоир, ёзувчи ва олим. – Фарғона, 2003
32. Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳакида. Хотиралар. – Т: 1983.

“Tasdiqlayman”  
Fakultet dekani \_\_\_\_\_ I.Azimov  
«\_\_\_\_\_» 2017 y.

**Filologiya va tillani o‘qitish (o‘zbek tili) taolim yo‘nalishi**  
**401-guru’ talabasi Razzaqova Umida Davronbek qizi**

### **BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA TOPSHIRIQ**

**Ishning mavzusi:** G’afur G’ulom qissalarida davr va shaxs talqini  
Universitet rektorining 2017 yil \_\_\_ noyabrdagi № \_\_\_ -sonli buyrug’I bilan tasdiqlangan.

**Ishning topshirilish muddati: 2018-yil 15-may**

**Mavzu bo‘yicha dastlabki maolumotlar beruvchi adabiyotlar:**

1. Мамажонов С. Услуб жилолари. – Т: Адабиёт ва санъат, 1972
2. Матёқубова Т.Faфур Fулом бадиияти. – Т: Фан ва технология, 2006
3. Назаров Б. Faфур Fулом олами. – Т: Фан, 2004.
4. Faфур Fулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. – Т : Фан, 1986-1989
5. Faфур Fулом замондошлари хотирасида. – Т: Faфур Fулом номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи, 2003

http://ziyonet.uz

http://ziyo.edu.uz

http://ziyo.edu.uz

**Ishning maqsadi va kutilayotgan natijalar:**

**Ishning rejasi:**

**BMIning umumiy tavsifi**

#### **I.BOB.ADABIY TA’SIR VA BADIY MAHORAT**

- 1.1. G’afur G’ulom nasri takomilida Abdulla Qodiriy romanlarining ta’siri
- 1.2. Yozuvchi nasriy ijodining ichki rivoji

#### **II.bob. ADIB IJODIY QARASHLARI VA BADIY TASVIR MUTANOSIBLIGI**

- 2.1. Adib qissalarida folklor va mumtoz adabiyot an’analari
- 2.2. Bosh qahramon qismatining ijtimoiy davr bilan bog’liqlikda badiiy tahlil qilinishi

#### **III. bob. ADIB QISSALARIDA YUMORNING KO‘LAMI**

- 3.1. O‘spirin obrazining shafqat va hamdardlik negizida tasvirlanishi
- 3.2. Xarakterlar qismatining o‘zaro tutashligi

**Umumiy xulosalar**

**Ishning bajarilish rejasি:**

<b>Nº</b>	<b>Bosqichlar</b>	<b>Bajailish muddati</b>	<b>Ijrosi</b>
1	Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishish	Sentyabr	
2	Faktik mateiallar to‘plash	Oktyabr	
3	To‘plangan mateiallani sistemaga solish	Noyabr	
4	Birinchi bobni shakllantirish	Dekabr -yanvar	
5	Ikkinci bobni shakllantiish	Mart	
6	Uchinchi bobni shakllantirish	Aprel	
7	Ishni xulosalash va kafedra ichki himoyasiga qo‘yish	May	

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:**

**dots. I.A.Yakubov**

**Kafedra mudiri:**

**f.f.d. B.N.Karimov**

**Topshiriqni oldim:**

**U.D.Razzaqova**

**20.11.2017 yil**